



Elyor Muratov

INSON SHAXSINI TAKOMILLASHTIRISHDA MA'NAVIY TARBIYANING AHAMIYATI

**Globallashuv sharoitida shaxsning ma'naviy-axloqiy
kamoloti va milliy tarbiyaning nazariy-amaliy
asoslari tahlili**

**Kitob quyidagi ko'rsatilgan
muddatda topshirilishi shart**

**Oldingi foydalanishlar
miqdori**

Elyor Muratov

INSON SHAXSINI TAKOMILLASHTIRISHDA MA'NAVIY TARBIYANING AHAMIYATI

**Globallashuv sharoitida shaxsning ma'naviy-
axloqiy kamoloti va milliy tarbiyaning nazariy-
amaliy asoslari tahlili**

GlobeEdit

Imprint

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: www.ingimage.com

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L publishing group

120 High Road, East Finchley, London, N2 9ED, United Kingdom
Str. Armeneasca 28/1, office 1, Chisinau MD-2012, Republic of
Moldova, Europe
Managing Directors: Ieva Konstantinova, Victoria Ursu
info@omniscryptum.com

Printed at: see last page

ISBN: 978-620-9-91361-7

Copyright © Elyor Muratov

Copyright © 2026 Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum
S.R.L publishing group

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM, FAN VA

INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

MUROTOV ELYOR

INSON SHAXSINI TAKOMILLASHTIRISHDA

MA'NAVIY TARBIYANING AHAMIYATI

MONOGRAFIYA



Denov- 2026

Murotov Elyor, Inson shaxsini takomillashtirishda ma'naviy tarbiyaning ahamiyati.
Monografiya. 2026. 85-b.

Mazkur monografiya inson shaxsini takomillashtirishda ma'naviy tarbiyaning tutgan o'rni va ahamiyatini tadqiq etishga bag'ishlangan. Ishda inson shaxsi tushunchasining falsafiy-huquqiy mohiyati, uning shakllanishida ma'naviy tarbiya omilining nazariy asoslari atroflicha yoritilgan.

Monografiyada globallashuv sharoitida shaxs ma'naviy tarbiyasining ijtimoiy xususiyatlari, xususan, "ommaviy madaniyat" xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda ma'naviy-axloqiy tarbiya tendensiyalari, oila va kitobxonlik madaniyatining shaxs kamolotidagi roli hamda ushbu sohadagi mavjud muammolarning yechimlari bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Ushbu tadqiqot ishi faylasuflar, sotsiologlar, pedagog-psixologlar, ma'naviyat sohasi xodimlari hamda inson kamoloti masalalari bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Taqrizchilar

A.Tashanov

Ijtimoiy -ma'naviy tadqiqotlar instituti, Milliy g'oya va ma'naviy ma'rifiy ishlarni metodik ta'minlash bo'limi boshlig'i, falsafa fanlari doktori (DSc)

I.M.Norbo'tayev

DTPI "Tarix va falsafa" kafedrası dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I BOB INSON SHAXSI VA MA'NAVITY TARBIYA TUSHUNCHALARINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	7
1.1 Inson shaxsi tushunchasining falsafiy mohiyati.....	7
1.2 Ma'naviy tarbiyaning shaxs shakllanishidagi ahamiyati.....	21
II BOB GLOBALLASHUV DAVRIDA SHAXS MA'NAVITY TARBIYASINING IJTIMOY XUSUSIYATLARI	35
2.1 Globallashuv davrida ma'naviy tarbiya transformatsiyasi.....	35
2.2 Ma'naviy tarbiya vositalarining inson shaxsini takomillashtirishdagi o'rni.....	45
III BOB POSTINDUSTRIAL JAMIYATDA SHAXS SHAKLLANISHIDA MA'NAVITY TARBIYANING MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLAR.....	57
3.1 Yangi O'zbekistonda ma'naviy-axloqiy tarbiya tendensiyalari tahlili	57
3.2 Inson shaxsini takomillashtirishda ma'naviy tarbiyaning muammolari va yechimlar	67
XULOSA.....	79
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	82

KIRISH

Insoniyat paydo bo'libdiki, to hozirgi kunga qadar uning rivojlanish jarayoni davom etib kelmoqda. Hech qaysi ongli inson o'zini takomillashish jarayonini nihoyasiga yetgan deb hisoblamaydi. Nafaqat insoniyat balki jamiyat, davlatlar ham mutassil taraqqiyot sari harakat qilib keladi. Albatta hamma davrlarda ham insonning kamoloti uning ma'naviy olami bilan chambarchas bog'liqdir. Insoniyat tarixida yer yuzining qaysidir nuqtasida taraqqiyot kuzatilgan bo'lsa, buning asl sababi shu hududda ilm-fanning, ta'lim-tarbiya, ma'naviyat-ma'rifat har qachongidanda yuksalgan. Aksincha qayerda tanazzul yoki qoloqlik hukm sursa ham ilm-fanning, ta'lim-tarbiya, ma'naviyat-ma'rifatning sustligi natijasida jaholat sari yuz tutgan deb hisoblanadi. Haqiqatdan ham sayyoramizda inson tomonidan qo'lga kiritilgan barcha narsalar: kuch-qudrat, davlat, moddiy boyliklarning hammasi inson ma'naviy olamining natijalari hisoblanadi. Insonning ma'naviy olami boy bo'lmas ekan, uning shunchaki mavjudligi, bilagidagi kuchi, mavjud moddiy boyliklari hech qanday ahamiyatsiz bo'lib qoladi. Ya'ni insonning insonligi ham, uning taraqqiyot va tanazzuli ham ma'naviy omillar natijasida kechadi.

Insonning shaxs sifatida takomillashish jarayoni uzoq muddatli jarayon hisoblanib, bunda turli omillar bevosita hamda bilvosita ta'sir ko'rsatib, bu jarayonda ma'naviy tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning shaxs sifatida shakllanishi, uning kamoloti masalalari har doim ham olimlar-u mutafakkirlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Xususan Sharqning mashhur allomalaridan Farobiy, Ibn Sino, Xorazmiy, Imom al-Buxoriy, Abu Iso at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy, Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa allomalar o'z asarlari hamda qarashlarida insonning kamolga yetishi, komil inson g'oyasi, shuningdek, ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratib, bizga beqiyos va qimmatli ma'naviy meros qoldirganlar. Bundan tashqari, Behbudiy, Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvar Qori, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy kabi buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz ham xalqimizni qoloqlikdan qutqarishning yagona yo'li ilm-ma'rifatni yuksaltirish ekanligini anglab, o'zlari bu ishda bosh bo'lganlar.

Bugun yer yuzi aholisi yangi sharoitda va yangi zamonda, globallashuvning kuchli bosimi ostida yashashga majbur bo'lmoqda. Bu davrda globallashuv bilan birga kirib kelgan "Ommaviy madaniyat" niqobidagi yot va zararli g'oyalarning ta'siri ba'zi yoshlarimizni o'zligimizdan uzoqlashtirishga, ma'naviyatimizga zid bo'lgan holatlar turmush tarziga o'zlari sezmagan holda kirib ketishlariga ta'sir etmoqda. Bundan tashqari Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan yoshlarni turli faxsh va yengil hayotni targ'ib qiluvchi materiallar ham bizni har qachongidan ko'ra hushyorlik va ogoh bo'lishimizga undaydi. Bundan kelib chiqadiki bu davr ma'naviy qadriyatlarga, milliy merosga yangicha munosabatda bo'lishni, yoshlarni millatparvarlik ruhida, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni har qachongidan ham ko'proq talab etmoqda. Bunday maqsadga ma'naviy tarbiya orqali erishishimiz va bu sohada bor kuch va imkoniyatlarimizni ishga solishimiz nihoyatda dolzarb masala hisoblanadi.

Dunyoda hozirgi kunda biz yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani o'z bo'yimizga olganmiz. Bu ishda har qaysi ota-ona, ustoz-murabbiy, mahalla oqsoqoli va faollarining yakdil va uyg'un faoliyati muhimdir. SH.Mirziyoev shunday yozadi: "Kun tartibiga qo'yilgan masala, ya'ni, ijtimoiy-ma'naviy sohani yanada rivojlantirish, oilalarimiz, mahallalarimizda, butun jamiyatimizda sog'lom muhitni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasi, tinch-osuda hayotimizni, muqaddas dinimiz pokligini asrash vazifasi bugungi kunda qanday ulkan ahamiyat kasb etayotgani haqida, o'ylaymanki, ortiqcha gapirishning hojati yo'q".

Ma'naviy tarbiya, yoshlarning ta'lim-tarbiyasi masalasi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning asarlarida, har bir ma'ruzasi va nutqlarida o'z ifodasini topgan. Bu asarlarda ma'naviy tarbiya masalasining muammolari, yechimlari, taklif va tavsiyalar hamda galdagi vazifalar aks etgan. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlarida² ham ma'naviyat, uni shakllantiruvchi mezonlar, ta'lim va tarbiya uyg'unligi, globallashuv jarayonlari va ma'naviy tahdidlar masalalari tahlil

¹ Mirziyoev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.-y 461-b.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008.

qilingan. Bundan tashqari E.Yusupov³, A.Erkayev⁴, M.J.Mutalipova⁵, E.Umarov va M.Abdullayev⁶ kitoblarida ham inson shaxsi, uning kamoloti, shaxs shakllanishida ma'naviy tarbiyaning o'rni, ma'naviy tarbiya vositalari haqida keng va atroflicha yoritilgan. Shu bilan birgalikda bir nechta mualliflarning maqola, tezis, monografiyalarida ham inson kamolotida ma'naviy tarbiyaning ayrim tomonlari haqida ma'lumot berilgan.

³ Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. – Тошкент: Ушшерситет, 1998. – Б. 183

⁴ Эркаев А. Маънавиятшунослик. Маънавият методологияси ва праксиологияси. 2-китоб. – Тошкент: Маънавият, 2018. – Я. 456 б.

⁵ Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi. – T.: «Fan va texnologiya», 2015, 160 bet.

⁶ Umarov E. Abdullayev M. Ma'naviyat asoslari. O'quv qo'llanma. T.: "Cho'pon" nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi. 2006-yil 128-bet.

I BOB. INSON SHAXSI VA MA'NAVY TARBIYA TUSHUNCHALARINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Inson shaxsi tushunchasining falsafiy mohiyati

Inson shunday bir borliqki, tabiatda undanda aziz va mo'tabar boshqa biron bir jonzot mavjud emas. Inson tabiat tomonidan yaratilgan jamiki mo'jizalarning sultoni, yer yuzining gultojidir. Inson va uning takomili muammosi ko'pgina ijtimoiy, tabiiy va aniq fanlarning o'rganish manbaidir. Xususan, iqtisodiyot nazariyasi, jamiyatshunoslik, biologiya va tibbiyot, psixologiya, etnografiya, pedagogika, geografiya hamda tarix singari ko'plab fanlar insonni keng qamrovda o'rganib, uning turli jihat va xususiyatlarini yoritib beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, inson haqida to'liq va har tomonlama keng bilim beradigan biror bir maxsus fan yo'q. Ammo inson haqida turli fanlar berayotgan ma'lumotlarni umumlashtirib, ularni bir butun sistema sifatida ishlab chiqishga alohida ehtiyoj mavjud. Shuni hisobga olgan holda insonni birdaniga bir necha jihatdan xarakterlash mumkin. Inson o'z tanasi va jismining xususiyatlariga ko'ra dunyodagi son-sanoqsiz narsalar kabi ijtimoiy, jismoniy hamda fizik jism sanaladi. Fiziologik tomonlari, kun kechirishi, ovqatlanishi, nasl qoldirishi va boshqalarga ko'ra esa u erdagi jonivorlar dunyosi vakillaridan biri sanaladi. Lekin u mehnat qilishi, fikrlashi, yaratuvchanligiga ko'ra esa alohida hilqat bo'lib, aynan ana shu jihatlarning odam, inson va shaxs deb atalishiga, jamiyatning bir bo'lagi ekanligiga asos bo'ladi.

Inson yer yuzidagi eng yuksak rivojlangan mavjudot. Unda biologik omillar bilan chambarchas bog'langan holda "ong", "jon", "ruh", "o'zlik", "ma'naviyat" va boshqa so'zlar bilan ataluvchi ruhiy va ma'naviy tomonlar ham mavjud. Shu o'rinda ana shu tushunchalarning tag ma'nosini anglashga harakat qilaylik. Obrazli qilib aytadigan bo'lsak, odamdagi sezgilar undagi "ma'naviylik"ning "eshik-derazalari" hisoblanadi. Chunki sezgilar va hissiyotlarsiz ruhiyat mavjud bo'lmaydi, boshqacha aytganda, har qanday fikr his-tuyg'ular olamida yuzaga chiqadi. "O'zlik"ning navbatdagi belgilari tuyg'ular bo'lsa, keyingisi esa tasavvurlardir. Aynan tasavvurlar inson ongi va tafakkuridagi barcha narsalarni mayhum shakldaligini ta'minlay olish

qobiliyati hisoblanadi. Shu bois fikr va tafakkurimiz, ongimiz hamda uning barcha murakkab qatlamlari (orzular, xayollar, g'oyalar, fantasiyalar, xotiralar, iroda, istaklar, qadriyatlar va abstrakt tus ola biladigan "o'zligimiz"ning boshqa unsurlari) tasavvurlar bilan uyg'unlashib, turli ruhiy holatlarni yuzaga keltiradi: goh g'amgin, goh shod, goh jahldor, gohida esa boshqa kayfiyatlarda namoyon bo'ladi. Ong, tafakkur inson "o'zligi"ning yuksak bosqichi, u hissiyot, tuyg'u va tasavvur negizida, ularning natijasi sifatida vujudga keladi. Tafakkur faqatgina aks in'ikos emas, u ijod hamdir. U tabiatda sof holda mavjud bo'lmagan qadriyatlar ijodidir. Masalan, "Cho'li iroq"ni tinglashda bizda vujudga keluvchi hayot navolari cholg'u asboblaridan yangrayotgan akustik tebranishlarda mavjud emas, yoki, O'rol Tansiqboevning "Chorvoqda oqshom" kartinasi, Levitanning peyjazlarida aks etayotgan mahzunlik xolstga surilgan bo'yoqlar ximiyasida yo'qdir. Ular bizning ma'naviyatga oid ongimiz xususiyatlari, "o'zligimiz"da mavjuddir, xolos. Shu ma'noda inson ongining, "o'zlik"ning siriligi shundaki, tabiatdagi, fizik, ximik va boshqa xususiyatlar qanday qilib go'zallik, yaxshilik, foydalilik, ornoms, haqiqat, adolat kabi inson hayotining asosi va maqsadlariga aylana oladilar? Bu masala insonning o'zi kabi qadimiylar, toki inson bor ekan u doimo yangi tortishuvlar mavzusi bo'lib qolaveradi.

Inson murakkab tuzilishga ega bo'lgan, ko'p qirrali va sarmazmun mavjudot sifatida doimo ilmiy hamda falsafiy izlanishlarning markazida bo'lib kelgan. Uning mohiyati, tabiati va hayotdagi o'rni haqida turli davrlarda xilma-xil qarashlar shakllangan. Sharq falsafiy tafakkurida ham inson masalasi eng dolzarb mavzulardan biri sifatida talqin etilgan.

Masalan, Abu Nasr Forobiy insonni borliq taraqqiyotining yuksak bosqichi sifatida baholab, uning kamoloti va fazilatlarini ilm-ma'rifat bilan chambarchas bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, inson hayotining maqsadi baxt-saodatga erishish hamda jamiyatga foyda keltirishdan iborat bo'lib, bu yo'l faqat ilm orqali amalga oshadi.

Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino insonning boshqa mavjudotlardan ustun jihati uning aqliy salohiyati va tafakkur qudrati bilan izohlaydilar. Abu Hamid G'azzoliy esa insonning yuksakligini ko'proq qalb pokligi va ruhiy kamolot bilan

bog'laydi. Shuningdek, mutasavvif Abduholiq G'ijduvoni insonni "kichik olam" sifatida tasvirlab, unda butun borliqning mazmuni mujassam ekanini anglatadi.

Hayotning go'zalligi haqida adabiyot va falsafa tarixida ko'plab fikrlar bildirilgan. Shoirilar va mutafakkirlar hayotni ulug'laydilar, uni oliy ne'mat sifatida talqin etadilar. Biroq hayotning asl qadri va mazmuni inson omili bilan belgilanadi. Zero, hayotning turfa qiyofalari bo'lmish ijtimoiy, ma'naviy va madaniy tomonlari faqat tomonidan yaratiladi. Shu sababdan hayotning go'zalligi ham insonning o'zigagina bog'liq jarayondir.

Insonning haqiqiy go'zalligi uning tashqi ko'rinishida emas, balki ichki dunyosida, ya'ni ma'naviy kamolotida namoyon bo'ladi. Axloqiy yetuklik, odob-axloqiy qoidalarga sodiqlik, ruhiy sofiyat va jamiyat oldidagi mas'uliyat hissi shaxsning haqiqiy qadriyatini belgilovchi asosiy omillardir.. Ma'naviylik insonning o'zini anglash darajasi, boshqalarga munosabati va jamiyat oldidagi burchini qay darajada his etishi bilan o'lchanadi.

O'zbek xalqining "Inson odobi bilan go'zal" degan hikmatli so'zida ana shu chuqur falsafiy haqiqat mujassamdir. Mazkur maqol insoniy go'zallikning mohiyatini axloqiy fazilatlar bilan bog'lab, shaxsning haqiqiy barkamolligi uning ma'naviy qiyofasi orqali namoyon bo'lishini ifodalaydi. Shu ma'noda, insonning komilligi — uning ma'naviy yetukligi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan qadriyatdir.

Xitoy faylasufi Konfutsiy ta'limotida inson o'z mohiyatini, avvalo, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini orqali namoyon etadigan mavjudot sifatida talqin qilinadi. Uning qarashlariga ko'ra, insonni chin ma'noda inson qiladigan jihat — bu tabiiy mayllar, hissiyotlar va ehtiyojlarni ma'naviy mezonlar asosida boshqara olish qobiliyatidir. Ya'ni biologik instinkt va hissiy impulslarning mavjudligi insonni boshqa jonzotlardan ajratmaydi; aksincha, ularni axloqiy nazorat ostiga ola bilish insoniylikning asosiy belgisi hisoblanadi.

Konfutsiy falsafasida ma'naviy mas'uliyat tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Aynan ma'naviy ong va axloqiy mas'uliyat inson xatti-harakatlariga me'yor beradi, unga nima joiz, nima nojoiz ekanini anglatadi. Shu bois ma'naviylik inson faoliyatining ichki mezonini, uning maqsadi, yo'nalishi va mazmunini belgilovchi

muhim omil sifatida talqin etiladi. Insonning jamiyatdagi o'rni ham uning ma'naviy yetuklik darajasi bilan chambarchas bog'liqdir.

G'arb ilmiy tafakkurida esa uzoq vaqt davomida insonga, asosan, biologik mavjudot sifatida yondashish ustuvor bo'ldi. Bu qarashga ko'ra, inson tabiatdagi evolyutsion jarayonlarning mahsuli bo'lib, uning shakllanishi va rivojlanishi tabiiy-tarixiy omillar bilan izohlanadi. Bunday talqinda insonning mohiyati ko'proq biologik tuzilishi, fiziologik xususiyatlari va evolyutsion taraqqiyot bosqichlari bilan bog'lab tushuntiriladi

Inson tushunchasiga nisbatan aniq va mukammal ta'rif berish uchun, avvalo, uni boshqa biologik mavjudotlardan farqlab turadigan asosiy va belgilovchi xususiyatlarni aniqlab olish lozim. Zero, insonning o'ziga xosligi aynan shu farqli jihatlar orqali namoyon bo'ladi.

Eng avvalo, inson boshqa tirik mavjudotlardan xotira, tafakkur va nutq kabi yuksak psixik qobiliyatlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, til insonning fikrlash jarayonini shakllantiruvchi va uni ijtimoiy mavjudotga aylantiruvchi muhim omildir. Tafakkur orqali inson borliqni anglaydi, xotira yordamida tajribani saqlaydi va uzatadi, til vositasida esa o'z fikrini ifodalaydi hamda ijtimoiy munosabatlarga kirishadi.

Insonni boshqa mavjudotlardan tubdan farqlovchi yana bir muhim jihat — bu uning o'z amaliy faoliyatini ongli ravishda boshqarish va tartibga sola olish qobiliyatidir. Inson o'z harakatlarini maqsadga muvofiq rejalashtiradi, natijani oldindan tasavvur qiladi va faoliyatini shu tasavvur asosida yo'naltiradi.

Bundan tashqari, inson o'z hayoti uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish, ishlab chiqarish salohiyatiga ega. Bu esa uning ijodkorlik va bunyodkorlik xususiyatini ifodalaydi. Inson tabiat ne'matlaridan shunchaki foydalanibgina qolmay, balki ularni qayta ishlaydi, o'zgartiradi va yangi qadriyatlar yaratadi.

Inson hayotida mehnat hal qiluvchi o'rin tutadi. Aynan mehnat jarayonida inson tabiatga faol ta'sir ko'rsatadi, uni o'z ehtiyojlariga mos ravishda o'zgartiradi hamda moddiy va ma'naviy boyliklar yaratadi. Shu ma'noda, Benjamin Franklin

insonni "mehnat qurollarini yaratuvchi jonzor" sifatida ta'riflagani bejiz emas. Bu ta'rif insonning ongli, maqsadga yo'naltirilgan va ijodiy faoliyatini uning eng muhim belgisiga aylantiradi.

Insonni boshqa jonzorlardan farqlovchi asosiy belgisi uning oila bo'lib yashashi hamda odob-axloqi hisoblanadi.

Inson o'zining tafakkuri orqali jamiki tabiat hamda koinot rivojida faol va bunyodkor kuch sifatida maydonga keladi, o'zining buyuk tarixini yaratadi, uni ajdodlardan avlodlarga me'ros qoldiradi. Insonning amaliy faoliyati va to'plagan tajribasi jamiyat taraqqiyotining asosiy manbai hisoblanadi. Jamiyatning rivoji va takomillashishi aynan inson tafakkuri, mehnati hamda ijtimoiy tajribasiga bog'liq bo'lib, shu jarayonda shaxsning har tomonlama o'sishi va kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlar ham shakllanadi. Bugungi kunda faylasuflar insonni uch asosiy komponent — tana, ruhiyat va ma'naviyatning murakkab yig'indisi sifatida talqin qiladilar. Insonning biologik xususiyatlari unga ovqatlanish, himoyalash, nasl qoldirish va atrof-muhit sharoitiga moslashish qobiliyatini beradi. Shu bilan birga, insonning ijtimoiy jihatlarining uning til va muloqot vositalaridan foydalanishi, bilim oltirishi, ong va tafakkur faoliyati, mahsulot ishlab chiqarish va taqsimlash, iste'mol qilish, shuningdek boshqaruv va o'zini o'zi boshqarish kabi turli faoliyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bundan tashqari, axloqiy qadriyatlar, nutq va jamiyat bilan munosabat insonning ijtimoiy xususiyatlarini shakllantiruvchi muhim omillardir.

Psixik xususiyatlar esa insonning ruhiy kechinmalari bilan tavsiflanadi: hayratlanish, tashvish va g'am, iztirob, zavqlanish, kayfiyatning turli holatlari kabi tajribalar insonning ruhiy hayotini belgilaydi. Shu tariqa, inson har uch yo'nalishda — biologik, ijtimoiy va ruhiy-ma'naviy — bir vaqtning o'zida rivojlanib, murakkab va ko'p qirrali mavjudot sifatida namoyon bo'ladi.

Falsafa va boshqa ijtimoiy gumanitar fanlarni o'rganganimizda biz "inson" tushunchasi bilan birgalikda "individd", "individuallik" hamda "shaxs" tushunchalariga ham duch kelamiz. Bu tushunchalar bir-biriga qancha o'xshash bo'lmasin ammo bir-biridan farq qiluvchi tomonlari ham bor.

Yuqoridagi keltirilgan tushunchalar qatorida "individd" terminini markaziy o'rin

tutadi. Bu atama, birinchi navbatda, muayyan insonning boshqalardan farqlanishi va chegaralanib olinganligi bilan tavsiflanadi.

Individ — bu Homo sapiens biologik turining alohida, yakka vakili hisoblanadi. Individning eng asosiy belgilari uning boshqalardan farqlanishi va alohidaligidir. Shu bois, individ insonning eng sodda va abstrakt tavsifi sifatida qaraladi, u shaxsiy xususiyatlarni umumiy biologik va ijtimoiy kontekstdan ajratib ko'rsatishga imkon beradi.

E'tiborli jihati shuki, "individ" tushunchasi har bir fanlarda turlicha talqinlarda uchraydi. Misol sifatida psixologiya fani unga boshqacha ta'rif bersa, sotsiologiya fani ham uning xususiyatlarini boshqacha tavsiflaydi. Va nihoyat, falsafa uchun individ ijtimoiy atom, alohida ajralib turuvchi mohiyat, ancha keng bo'lgan ijtimoiy yaxlitlikning (guruhning, sinfning, millatning, insoniyatning) ayrim olingan vakilidir⁷.

Yana shu narsani aytish kerakki: boshqalardan farqlanish, ayirlik insonning muhim xususiyati hisoblanmaydi, chunki olamdagi narsa va hodisalarning barchasi ham qandaydir jihatdan bir-biridan ajralib turishi mumkin. Lekin insonga nisbatan «individuallik» degan tushuncha boshqalaridan ko'ra ko'proq mos keladi. Bu tushuncha insonning betakror hamda noyob ekanligini bildiradi. Umuman olganda individuallik - individ tushunchasini shaxs tushunchasiga aylantiruvchi muhim bosqichdir. Inson tug'ilishidan boshlab individ sifatida dunyoga keladi, biroq shaxsga aylanishi uning individualligining barcha imkoniyatlarini ochish orqali amalga oshadi. Individuallik — bu individning o'ziga xosligini, ichki ruhiy va psixik dunyosining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi jihatdir. Shu nuqtai nazardan, individuallik insonga xos bo'lgan universal (umumiy) va noyob, o'ziga xos xususiyatlarning uzviy birligini tashkil etadi, ya'ni inson shaxsining butunligini va murakkab tabiatini aks ettiradi.

Shaxs — alohida kishi, ijtimoiy-axloqiy mohiyatni o'zida mujassamlashtirgan individ⁸. Bu tushuncha barcha ijtimoiy gumanitar fanlarda o'z predmeti nuqtai nazaridan ishlatiladi.

⁷ Каранг: Философия Ростов-на-Дону. 1996. 264-6.

⁸ Фалсафа комуниси лугат. "Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти" Тошкент. 2004. 450-6

"Shaxs" tushunchasi individ o'zida boshqa kishilar bilan muloqotdagina tarkib topdiradigan alohida sifatlar borligini ko'zda tutadi. Ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli bo'lgan individ sifatida ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirgan insondagi ijtimoiy xususiyatlarning bir butunligi, yaxlitligi shaxs tushunchasida aks etadi. Bundan kelib chiqadiki har qaysi jamiyatda bo'lishidan qat'i nazar insonning ijtimoiy muhit tomonidan qamrab olinishi, uning tarkibiga kirishi tufayli ham insonga shaxs sifatida qarash mumkinligi tabiiy holdir. Har bir shaxsning o'zi bir olamdur. Shu ma'noda Gyote: «Har bir inson butun bir dunyodir. Bir shaxsning vafoti bilan butun bir olam yo'q bo'ladi», deganida benihoya haq edi.

Ma'naviyat nuqtai nazaridan inson va shaxs tushunchalariga turlicha ta'rif berishimiz mumkin: Inson — ma'naviy kamolot imkoniyatiga ega bo'lgan moddiy mavjudot (Insonning ijtimoiy mavjudot ekanligi ham uning ma'naviy kamolot imkoniga ega ekanligidan kelib chiqadi)⁹.

Shaxs — bu o'z ma'naviy kamolot imkoniyatlarini rivojlantira boshlagan insondir. Ushbu jarayon ko'pincha "o'zlikni anglash" deb talqin qilinadi; shunday ekan, shaxsni insonning o'zligini anglay boshlagan bosqichi sifatida ham ta'riflash mumkin.

Shaxs — alohida individ bo'lib, unda ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy mohiyatning uyg'unligi mujassamlashgan bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, inson shaxs sifatida tug'ilmaydi; shaxsiyat jamiyatning ijtimoiy, madaniy va ma'naviy muhitida shakllanadi, rivojlanadi va o'z kamolotiga yetadi.

Inson o'zini tarbiyalash, ta'lim olish, mehnat qilish va boshqalar bilan muloqot qilish jarayonlarida jamiyatning ijtimoiy tajribasi, bilim va turli munosabatlari, shuningdek axloqiy va ma'naviy qadriyatlar hamda siyosiy qarashlar ta'siri ostida shakllanadi va faoliyat yuritadi. Ushbu jarayonlarni o'zlashtirish orqali inson asta-sekin ijtimoiylashadi va shaxs sifatida shakllanadi. Natijada, irsiy bo'lmagan yangi fazilatlar yuzaga keladi va inson yaratuvchan, faol mavjudot sifatida o'zini namoyon eta boshlaydi.

Shaxsiy xususiyatlar qatoriga o'zini boshqarish va nazorat qilish, tarbiyalash,

⁹ Худайназаров С, Турсунова Г. "Маънавиятшунослик" фани бозьича оькув- услубий мажмуа. Тошкент. 2012- й. 281-бет.

yuqori ma'naviyatni his etish, ma'lum g'oyalar yo'lida faol kurash olib borish, mustahkam e'tiqodga ega bo'lish, fikr-mulohazalarni erkin ifodalash hamda ijtimoiy va siyosiy faoliyatda qatnashish kiradi. Shu jihatlar shaxsning o'ziga xosligini va uning ijtimoiy hamda ma'naviy kamolotini aks ettiruvchi asosiy omillar sifatida qaraladi.

Shaxs mustahkam iymon-e'tiqod, g'oya va insoniy fazilatlarga ega bo'lgan, Vatan, millat tuyg'usi bilan yashaydigan, o'zida davr xususiyatlarini ifoda etadigan insondir.¹⁰

Shaxs — bu biofiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy va estetik xususiyatlarning uzviy uyg'unligi bo'lib, u shuningdek, ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan birgalikda o'zini namoyon etadigan murakkab butunlikdir. Shaxs — madaniylashgan jonzo; ijtimoiy-tarixiy tajribaga ega bo'lgan muayyan davr avlodining vakili; insonlararo munosabatlar sub'ekti.

Shaxs mohiyatan madaniy rivojlangan, ong va aql yordamida faoliyatini boshqarish qobiliyatiga ega bo'lgan, ijtimoiy-tarixiy an'ana, turmush tarzi va tajribalar asosida shakllangan ma'lum bir avlod vakilidir. Sharq falsafasida esa shaxs yuksak axloqiy va ma'naviy me'yorlar bilan tavsiflanib, oliy hilqat va bebaho qadriyat sifatida qadrlangan. Inson shaxs sifatida doimo kamolotga intilib, hayotining mazmunini boyitadi va shu orqali jamiyatning go'zalligi va farovonligini ta'minlashga intilish hissini uyg'otadi.

Shaxs tushunchasi inson tushunchasining yuksak va oliy ko'rinishidir. U o'zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi¹¹.

Ma'naviyat nuqtai nazaridan Shaxs tushunchasiga yondoshuvimizda ikki holatni ko'zda tutish lozim:

1) biz har bir o'zga insonni Shaxs sifatida qabul qilmog'imiz joiz, chunki unga yaratilishdan bu imkoniyat Xolqi olam tomonidan berilgan. O'zga inson dilidagini biz bilmaymiz, shu sababli zohiriy ko'z bilan undan xatolar izlashimiz, unda ma'naviy noqislik ko'rishimiz Inson odobiga, ma'naviyat talablariga xilofdir;

2) har bir inson o'zini Shaxs sifatida anglar ekan, tinimsiz ma'naviy kamolot imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, ya'ni o'zligini anglash jarayonida bo'lmog'i joiz sanaladi. Bu jarayon to'xtagan onidan uning Shaxs sifatidagi tanazzuli boshlanadi.

Falsafiy nuqtai nazardan shaxs muammosi — bu avvalo insonning mohiyati, uning dunyodagi va jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq masaladir. Shaxsning shakllanish jarayonida muayyan ijtimoiy munosabatlar va tarixiy kontekstning o'ziga xos xususiyatlari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Antik davr odami uchun eng asosiy deb yaxshi firklar, intilishlar, istaklar hisoblangan va ular ijtimoiy amaliyotda qanchalik ro'yobga chiqishiga umuman olganda katta ahamiyat berilmagan: "Insonni faqat uning ishlariga qarab emas, intilishlariga qarab ham baholash lozim" (Demokrit), "Inson qanday fikrlasa, u hayotda shundaydir" (Sitseron), "Bizning hayotimiz biz u haqda nima o'ylasak ana shudir" (Mark Avreliy), "Axloqiy fazilatlar niyatlar bilan bog'liqlikda ko'zga tashlanadi" (Arastu)¹².

Antik davr mutafakkirlari nazarida chinakam shaxs — bu birinchidan axloqiy yetuklikka ega, ikkinchidan aql-idrok bilan boyitilgan, uchinchidan boshqalar bilan faol muloqot qila oladigan, va to'rtinchidan siyosiy hamda davlat hayotida ishtirok etadigan insondir. Ularning qarashida shaxsiy kamolot va ijtimoiy faollik bir-birini to'ldiruvchi asosiy omillar sifatida qaraladi.

O'rta asrlar esa shaxsning boshqa tipini namoyon etadi. Mazkur davr jamiyatining tabaqalanganligi, qat'iy korporativ tuzilishi va kastalarga bo'linishi shaxsiy xususiyatlarning rivojlanishida cheklovchi rol o'ynagan. Shu sababli muayyan tabaqa, kasta, sex yoki gildiyaga mansublik va ularning qonunlari, odatlari, an'analariga bo'ysunish shaxsning individual sifatlarining namoyon bo'lishidan ko'ra ustun ahamiyatga ega edi.

Yangi davrda inson shaxsining qiymati, avtonomligi va o'ziga xosligi aniqroq ta'kidlanadi. Bu, ayniqsa, ijtimoiy va siyosiy tafakkurda namoyon bo'ladi. Shaxsning g'arbiy (Yevropa-Amerika) konssetsiyalarida ijtimoiy faollik, tadbirkorlik, ongli va samarali faoliyat, mustaqillik, individualizm, shaxsiy mas'uliyat va o'z qadr-qimmatini anglash kabi fazilatlar alohida yuqori qadrlanadi.

¹⁰ Falsafa. Toshkent. "O'zbekiston", 2005. 275 bet

¹¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 10-жилд. Тошкент. "ЎзМЭ". 2005. 15-бет.

¹² Axmedova M, Xan V. «Falsafa». «Mehnat» nashriyoti. T. 2005 y. 244-bet.

Sharqiy model esa boshqacha yondashuvni aks ettiradi. Shaxsning sharqqa xos modeli bir nechta modifikatsiyalarga ega bo'lib, ular orasida islomiy, buddaviy, konfutsiylik va boshqa falsafiy-ijtimoiy yondashuvlar mavjud. Shunday bo'lsa-da, Sharqiy va G'arbiy shaxs modellari orasida ularni ajratib turuvchi muayyan umumiy jihatlar ham mavjud bo'lib, bu mushtarakliklar shaxsning ma'naviy, ijtimoiy va axloqiy aspektlarida o'z ifodasini topadi.

Shaxsning Sharq tipiga xos asosiy xususiyatlar quyidagilar bilan belgilanadi: inson huquqlari bilan bir qatorda mas'uliyat va majburiyatlarning ustunligi; xulq-atvorda traditsionalizmning kuchli ta'siri; jamoaviy me'yorlar va kollektiv modellarning individual mezonlardan ustun turishi; sotsiumga yuqori darajada bog'liqlik; shuningdek, ijtimoiy muhit bilan doimiy va keng qamrovli aloqaning mavjudligi.

Inson hayoti davomida doimiy o'sish, rivojlanish va o'zgarish jarayonidan o'tadi. Ayniqsa bolalik, o'smirlik va o'spirinlik davrlarida shaxsning kamol topishi yaqqol namoyon bo'ladi.

Rivojlanish tushunchasi shaxsning jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan kamolga yetish jarayonini o'z ichiga oladi. Pedagogika va psixologiya fanlari rivojlanishni biologik va ijtimoiy xususiyatlarning uzviy bog'liqligi bilan bir butun sifatida talqin qiladi. Odam bolasi shaxs sifatida to'la rivojlanishi va har tomonlama kamol topishi uchun pedagogika uning rivojlanish qonuniyatlarini, turli ta'sir qiluvchi omillarni hamda ta'lim, tarbiya va faoliyatning shaxs kamolotidagi o'rni va ahamiyatini chuqur o'rganadi va tahlil qiladi. Ma'lumki, inson shaxs sifatida tug'ilmaydi; uning shakllanishi avvalo hayotiy sharoitlar va ijtimoiy muhit bilan belgilanadi. Inson o'z umri davomida serqirra taraqqiyot bosqichlaridan o'tishi tufayli shaxsga aylanib boradi. Shu boisdan, shaxsni muayyan ijtimoiy tuzum va sharoitlarning mahsuli sifatida tushunish to'g'ri bo'ladi.

Har bir jamiyatda shaxsning shakllanishi va kamol topishi masalalariga samarali yondashish uchun shaxsning tabiati, tuzilishi, xulq-atvori hamda unga ta'sir etuvchi omillar va vositalarni chuqur bilish zarurdir.

Shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar. Fanda insonning shaxs sifatida

rivojlanishida biologik va ijtimoiy omillar o'rtasidagi munosabat masalasi uzoq va davomli muhokamalar mavzusiga aylangan. Savol tug'iladi: shaxsning rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri ustunmi, yoki biologik omillar yetakchi o'rin egallaydimi? Yoki tarbiyaning roli eng muhim omil hisoblanadimi? Shu bilan birga, bu omillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlik qanday shakllanadi? Ushbu masalalar insonning shaxs sifatida shakllanishini tushunish va uning rivojlanish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun markaziy ahamiyatga ega.

Biologik yondashuv fanda muhim o'rin egallab, uning tarafdorlari — Aristotel va Platon kabi mutafakkirlar — insonning hayotiy pozitsiyasida tabiiy-biologik omillarning ahamiyatini yuqori baholaydilar. Ularning fikricha, tug'ma imkoniyatlar, taqdir va iroda har bir insonning hayotdagi o'rnini belgilovchi asosiy omillardir.¹³

XVI asr falsafasida shakllangan preformizm oqimi vakillari shaxs rivojlanishida naslning rolini ustuvor hisoblab, ijtimoiy muhit va tarbiyaning ta'sirini inkor qilgan.

Xorij psixologiyasida esa XX asr boshlarida bixeviorizm oqimi shakllanib, uning tarafdorlari insonning ong va aqliy qobiliyatlari nasldan-naslga o'tib, tabiatan berilgan deb hisoblashgan. Ushbu nazariyaning mashhur vakili sifatida amerikalik olim Eduard Torndayk ajralib turadi.

Bundan tashqari pragmatizm oqimi tarafdorlari — D. D'yul va A. Kombe — shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazardan tushuntiradilar. Ularning fikricha, rivojlanish asosan miqdoriy o'zgarishlar orqali sodir bo'ladi, naslning roli esa juda katta bo'lib, inson taqdirini belgilovchi hal qiluvchi omil sifatida qaraladi. Bundan bilish mumkinki, bir qancha xorij mamlakatlari olimlari shaxsning rivojlanishini asosan biologik, ya'ni nasliy omillarga bog'lashadi.

Biologik oqimga qarshi falsafiy yo'nalish vakillari shaxs rivojlanishini asosan ijtimoiy omillar bilan izohlaydilar. Ularning fikricha, bola shaxsining jismoniy va psixik rivojlanishi u yashaydigan ijtimoiy va madaniy muhit bilan bevosita bog'liqdir.

Muhit tushunchasi ostida inson istiqomat qiladigan turli sharoitlardagi turli

¹³ Тухтаужаева М.Х., Аширбеков С. ва бошқалар "Педагогика тарихи ва назарияси". II қисм. Тошкент, 2005-йил 41-бет



ta'sirlar tushuniladi. Shunday qilib, tarbiya orqali bolani uning yashash muhitiga moslashtirish va shaxs sifatida rivojlanishini qo'llab-quvvatlash mumkinligi xulosa qilinadi.

Ular ijtimoiy muhitni shaxs rivojlanishida asosiy omil deb hisoblashadilar. Shu sabab, inson zotining shaxs sifatida shakllanishi va kamolga yetishi bir vaqtning o'zida bir nechta omillarga bog'liqdir: nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit) va maqsadga muvofiq olib boriladigan tarbiya. Ushbu omillarning ahamiyatini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixologlar va faylasuflarning nazariyalari asosiy manba sifatida qabul qilinadi.

Falsafiy qarashlarda shaxs murakkab ijtimoiy voqelik sifatida talqin qilinadi, uning jamiyatdagi o'rni va faoliyati bilan uzviy bog'langan. Shuningdek, shaxsning ma'naviy boyligi va kamoloti uning boshqalar bilan munosabatlari orqali ifodalanadi, ya'ni individu va ijtimoiy hayot bir-birini to'ldiruvchi omillar sifatida qaraladi.

Shunday qilib, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muhit, inson o'rtasidagi murakkab aloqa ta'siri ostida ro'y beradi, inson ularga faol ta'sir etadi va shu yo'l bilan hayoti va o'z tabiatini o'zgartiradi.

Shaxsning shakllanishida ijtimoiy muhitning ta'siri muhim ahamiyatga ega bo'lib, u asosan tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi.

Birinchidan, tarbiya yordamida shaxs muhitdan ololmagan bilim va ma'lumotlarni egallaydi, shuningdek, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalarni rivojlantiradi.

Ikkinchidan, tarbiya tug'ma kamchiliklarni yumshatib, shaxsning kamolga yetishiga imkon yaratadi.

Uchinchidan, tarbiya orqali muhitning salbiy ta'sirini kamaytirish yoki yo'qotish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya kelajak uchun aniq maqsadlarni belgilash imkonini beradi.

Shunday qilib, tarbiya va rivojlanish uzviy bog'liq jarayon bo'lib, tarbiya doimiy va uzluksiz amalga oshadi. Shu sababli, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya

yetakchi o'rinni tutadi; u nasl, oila va ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishiga imkon beradi.

Insonning kamol topish jarayonini faqat irsiyat, ijtimoiy muhit va ta'lim-tarbiyaga bog'lab tushuntirish to'liq haqiqatga mos kelmaydi. Chunki shaxs o'z rivojlanishida faqatgina tashqi omillarga emas, balki faol ishtiroki orqali ham ta'sir ko'rsatadi.

Shaxsning shakllanishi va rivojlanishida uning ijtimoiy faoliyati, sotsium hayotidagi muayyan roli muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Individ shaxs sifatida faqat turli xil ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etib, o'zligini anglash va namoyon qilish imkoniga ega bo'ladi.

O'z davrida Aristotile insonning asosiy vazifasi uning ongli faoliyatida namoyon bo'lishida deb hisoblagan. Shu bilan birga, Jami «Qo'llaring baquvvat ekan, ularni kundalik mehnatga bag'ishla» deb insonlarni mehnatga da'vat qilgan. Shu paytda, Ibn Sina esa bekorchilik va ish yo'qligini nafaqat nodonlik belgisi, balki kasalliklar kelib chiqishiga ham sabab bo'lishi mumkinligini ogohlantirgan.

Shaxs — bu faqat ma'lum bir ijtimoiylashuv jarayonining natijasi emas, balki uzluksiz rivojlanib boradigan jarayondir. Agar doimiy o'sish, kamolotga intilish va oldinga harakat bo'lmasa, shaxs buzilishi yoki degradatsiyaga uchrashi mumkin.

Insonning hayotiy faolligi shaxs shakllanishining eng muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayon davomida shaxs nafaqat tabiiy va ijtimoiy muhitga moslashadi, balki o'z xohish va maqsadlariga muvofiq uni o'zgartira oladi. Shu tariqa, chinakam insoniy, shaxsiy va ijtimoiy talablarga javob beradigan rivojlangan olam shakllanadi.

Jamiyatni tashkil etuvchi unsurlar masalan uning tizimi hamda tuzilishi, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etuvchi barcha narsalar - shaxsning yaratuvchilik faoliyatining, uning olamni o'zgartiruvchi ijodiy faoliyatining natijasi.

Immanuel Kant shaxsning jamiyatdagi o'rni va roli haqida ushnu fikrlarni aytadi: «Inson faqat vosita sifatida emas, balki maqsad sifatida ham o'z-o'zicha mavjud bo'ladi..., o'zining barcha xatti-harakatlarida u maqsad sifatida ham qaralishi zarur»¹⁴.

¹⁴ Kant II. Coq. T.H.4 I. M., 1965. 269-6.

Shuni ta'kidlash mumkinki, shaxsning tug'ma layoqati faqat ijtimoiy muhit, ta'lim va tarbiya, hamda o'zining faol ishtiroki orqali uyg'onadi va rivojlanadi; shu yo'l bilan uning iste'dodi va qobiliyatlari shakllanadi. Agar inson o'z faoliyatini sevib bajarsa, uning shu sohadagi iste'dodi tezroq va samaraliroq namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, amalda shunday holatlar ham uchraydiki, kishi bir soha bilan shug'ullansa ham, uning tabiiy qobiliyati boshqa sohada o'zini ko'rsatadi. Bunday hodisalar, odatda, insonning qobiliyatlari to'la shakllanmagan yoki rivojlanishning dastlabki bosqichlarida sodir bo'ladi.

Qobiliyat va iste'dodning to'la ro'yobga chiqishida insonning faqat muayyan faoliyatga qiziqishi emas, balki o'z ustida muntazam ishlashi ham muhim ahamiyatga ega. Iste'dodli shaxslar o'z qobiliyatlarini to'liq namoyon etish uchun doimiy mehnat qilishlari, o'z ustida tinimsiz ishlashlari zarur.

Misol uchun, mashhur yunon notig'i-nutq ustasi Demosfenning (miloddan avvalgi IV asr) omma oldidagi ilk chiqishlari muvaffaqiyatsiz bo'lib, ba'zan hatto kulgi va masxarabozlikka sabab bo'lgan. Demosfen nutqida duduqlik, xasta ovoz va qisqa nafas olish kabi qiyinchiliklarga ega edi. Shuningdek, u nutq so'rayotganda doimo bir yelkasini ko'tarib turar edi. Lekin u aktyor Satimning maslahati bilan o'z nutqini takomillashtirishga kirishadi. Demosfen o'z kamchiliklarini bartaraf etish uchun irodalilik va qat'iyatlilik ko'rsatadi: u so'zlarni aniq talaffuz qilishni o'rganish uchun og'ziga mayda toshlar va sopol parchalarini solib mashq qilgan, dengiz bo'yidagi to'lqin shovqinida nutq qilgan, qoyalarga chiqib baland ovoz bilan she'r o'qigan va oynaga qarab yuz mushaklarini bir maromga keltirishni mashq qilgan. U uy shiftiga qilich osib, yelkasini uchirganda qilich harakatini kuzatgan. Haftalab uydan chiqmay, notiqlik san'atini o'rgangan, hatto uyda qolish uchun sochining yarmini qirib tashlagan. Shunga o'xshash misollarni boshqa tarixiy shaxslar hayotida ham ko'rish mumkin: masalan, Alisher Navoiy va Ibn Sinoning qunt bilan kitob mutolaa qilganlari, A.V. Suvorov va Amir Temurning harbiy san'atni egallash borasidagi mehnatlari bu fikrni tasdiqlaydi.¹⁵

Xulosalar shuni ko'rsatadiki, ayrim shaxslarda bolalik va maktab davrida

¹⁵ Munavvarov A.Q. «Pedagogika». «O'qituvchi» nashriyoti. T. 1996 y. 23-bet.

qulay sharoit bo'lgan taqdirda ham tug'ma iste'dod va qobiliyat belgilarini darhol sezish qiyin bo'ladi. Shu bilan birga, keyinchalik shaxsning qunt bilan, mustaqil ravishda ishlashga bo'lgan intilishi, g'ayrat va qat'iyatlili natijasida u o'z salohiyatini to'liq namoyon etadi va katta qobiliyat egasi sifatida o'zini ko'rsatadi.

Mashhur shaxslarning hayotiy faoliyati shuni tasdiqlaydiki, ularning ijodiy yutuqlaridagi asosiy omil — bu uzluksiz, qat'iy va tizimli mehnatdir. Ular oylar, yillar, ba'zan o'n yillar davomida o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishish yo'llarini izlab, hech qanday qiyinchilik va to'siqdan cho'chimasdan harakat qilganlar. Shu tariqa, shaxsiy g'ayrat va tinimsiz mehnat iste'dodning rivojlanishi va ijodiy faoliyatning muvaffaqiyatga yetishida hal qiluvchi omilga aylanadi.

Shaxsning muhim xususiyatlaridan biri — uning erkinligi bo'lib, u faollik va doimiy kamolotga intilish bilan uzviy bog'liqdir. Erkinlikning yo'qligi turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: qullik, krepostnoylik, qamoq, ma'naviy qaramlik va shunga o'xshash holatlar. Erkinlikning yo'qligi shaxsiy mas'uliyatning yo'qligini bildiradi, va bunday vaziyatda insonni chinakam shaxs deb hisoblash qiyin bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, erkinlikni anarxiya bilan aralashtirmaslik kerak, chunki jamiyatda yashashdan va ijtimoiy qoidalarga rioya qilishdan butunlay ozod bo'lish imkonsizdir.

Erkinlik va mas'uliyat bir-biriga dialektik tarzda bog'langan ikki tomonlama tushuncha sifatida qaraladi. Inson o'zining ijtimoiy majburiyatlarini, jamiyat oldidagi burchini va shaxsiy mas'uliyatini tabiiy bir hol, erkinligi va ijtimoiy faoliyatining ajralmas qismi sifatida qabul qilganda, u chinakam shaxs sifatida shakllanadi.

Agar kishi o'z hayot yo'lini topa olsa, uning ongi mustaqil rivojlanib borib ong osti yo'nalishiga tusha olsa xuddi to'lqinlarning mos kelishi kabi insonda ma'naviy ruhiy mutanosiblik sodir bo'lib, u mukammal kamolot yo'lga kiradi.

1.2. Ma'naviy tarbiyaning shaxs shakllanishidagi ahamiyati

Insoniyat paydo bo'libdiki barcha zamonda ham hammaning diqqat markazida bo'lib kelayotgan va barchani o'ylantirib kelayotgan hech qachon eskirmaydigan bir masala bor. Bu ham bo'lsa tarbiya masalasi. Chunki davlatni davlat, millatni millat

qiladigan, uning taraqqiyotini ham tanazzulini ham belgilab beradigan omil bu unda yashayotgan fuqorolarning dunyoqarashi, ta'limi va tarbiyasidir. Bundan bir necha ming yillar oldin yashagan yunon tarixchisi Gerodot o'zining Sharqqa qilgan safarlari chog'ida Misr exromlaridagi bir bitikka ko'zi tushib, uni ajablanishiga sababchi bo'lgan: "Yoshlar tarbiyasi buzilib ketyapti. Nima qilmoq kerak?!"¹⁶

Tarixchi bu bitikni o'qiganiga ikki ming yildan oshib ketdi, ammo bu yozuv bitilganiga qancha yil bo'lgan esa bizga nomalum.

Gerodotning bu fikrlarini eshitib har kimning ham xayoliga bugungi kunda ham ushbu so'z juda ko'p tilga olinayotgani yodimizga keladi. Demak yoshlar tarbiyasi muammosi faqat bugunning emas balki, barcha davrlarni qamrab olgan dolzarb masaladir.

Tarbiya - avlodlararo ijtimoiy-tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiladigan, oila, ta'lim muassasalari, ijtimoiy, siyosiy va boshqa tashkilotlar, OAV ta'siri ostida jismonan sog'lom, ma'n'an barkamol insonni shakllantirish va takomillashtirish jarayonini anglatuvchi tushunchadir. Tarbiya insonga individual va ijtimoiy, ongli va ongsiz ta'sirlarning yig'indisini mujassamlashtiradi, yakka kishiga, ma'lum bir jamoaga, xalq yoki millatga qaratilgan bo'lib, davlat va jamiyat qurilishi hamda rivojlanishida muhim ahamiyatga ega¹⁷.

Yuqoridagi ta'rifdan ko'rinib turibdiki, tarbiya tushunchasi o'zining barcha shakllari bilan ma'naviy tushuncha bo'lib, u o'zida ma'naviy hayotning asosiy yo'nalishlarini aks etadi. Chunki aynan tarbiya kishining ongiga, tafakkuriga ta'sir etadi va shu orqali unda ezgulik, go'zallik, adolat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, vijdonlilik va boshqa sifatlarni shakllantiradi.

Avvalo, bolaga ta'lim-tarbiyani majburlab o'rgatib bo'lmaydi. Tarbiya - juda nozik masala bo'lib unga juda ehtiyotkorona yondashish va yangi uslub va usullardan foydalanish zarur.

Odamning haqiqiy insoniy fazilatlar — ong, tafakkur, o'zini anglash, odob-axloq va shu kabi xususiyatlar — bevosita tarbiya va ta'lim jarayoni orqali

¹⁶ Akmal Miravaz o'g'li. «Tarbiyaning oltin kaliti yoxud yo'ldagi belgilar». "Movaraunnahr" nashriyoti. T. 2020 y. 3-bet.

¹⁷ Ma'naviyat asosiy tushunchalar lugati. Toshkent: "Ўзбекистон филолашуфлари миллий жамияти" нашриёти. 2021-йил 549-бет

shakllanadi. Inson bolasi tug'ilganda tayyor fikrlash qobiliyati yoki to'la ong bilan kelmaydi; u faqat anglash va tafakkur imkoniyatlariga ega bo'ladi. Shu potentsial esa tarbiyaviy muhit, o'qish, muloqot va tajriba orqali rivojlanib, hayotiy amalda namoyon bo'ladi. Insonning o'zlikni anglash va yuksalish jarayonlari avvalo ta'lim-tarbiya orqali erishiladi. Ma'naviy tarbiyaning bosh maqsadi — insonga o'zligini anglatishdir¹⁸.

Ma'naviy tarbiya — yuksak ma'naviyatni tarbiyalash vositasi, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma'naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta'lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushunchadir¹⁹.

Har bir xalqda har bir jamiyatda o'ziga xos ma'naviy tarbiya tizimi mavjud. Chunki ma'naviy tarbiya insonning o'zligini saqlashga, uning botiniy olamini ma'rifiy jihatdan boyitishga xizmat qiladi. Ma'naviy tarbiya olib bormagan millat buguni va ertasini boy berishga majburdir. Shu ma'noda, o'z haq-huquqini taniydigan, bilimi va qobiliyatiga tayanib yashaydigan, atrofida ro'y berayotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bildiradigan, shu bilan birga, davlat va xalq manfaatlaridan o'z shaxsiy manfaatlarini ustun sanamaydigan erkin shaxshi shakllantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy tarbiya keng ko'lamli, chuqur ma'noli hisoblanadi. Bunda adabiyot, san'aning barcha turlari, tarixiy an'analar, falsafa, xalq og'zaki ijodi, ajdodlar tajribasi, yaxshi odatlarning birgalikdagi ishtiroki nazarda tutiladi. Albatta, umuminsoniy qadriyatlar hamma uchun birdek qadrlanadi. Hamma yerda ham inson axloqi, uning kamoloti uchun kurash davom etadi. Biroq, bunda tarixiy an'analarga sodiqlikni, milliy mentalitetni, xalqning o'ziga xos xislatlarini hisobga olish zarur. Xalq o'zligini saqlamasa, eng ulug' va eng aziz qadriyat — mustaqillik va erkinlik degan ne'mat xavf ostida qoladi. Shu ma'noda, "ma'naviy komillik" tushunchasi "vatanparvarlik", "elsevarlik", "milliy g'urur" tushunchalari bilan uzviy aloqada olib

¹⁸ Эркаев А. Маънавиятшунослик. Маънавият методологияси ва праксиологияси. 2-китоб. — Тошкент: Маънавият. 2018. -й. 325-б.

¹⁹ Маънавият асосий тushunchalar лугати. Тошкент: "Ўзбекистон филолашуфлари миллий жамияти" нашриёти. 2021-йил 331-бет

qaralishi kerak.

Ma'naviy tarbiyaning ilmiy-metodologik tomonlari bilan falsafiy fanlar shug'ullansa, uning metodlari ya'ni uslubiy tomonlari bilan pedagogika fanlari shug'ullanadi.

Bizga ma'lumki ma'naviy tarbiyaning turli shakllari mavjud bo'lib, ularga mehnat, axloqiy, estetik tarbiya, fuqorolik, jismoniy, huquqiy, siyosiy tarbiya va boshqalar kiradi.

"Tarbiyaning barcha shakllari ma'naviyatga oid hodisadir, chunki u inson ongi va tafakkuriga ta'sir ko'rsatish, unga aniq amaliy, kasbiy yoki g'oyaviy-e'tiqodiy bilim berish, nimanidir o'rgatish, nimagadir ixlosni, ezigulik, go'zallik, adolat kabi yuksak ideallarni, ishonchni qaror toptirish orqali insonning o'zini inson sifatida shakllantiradi"²⁰

Tarbiya jarayonlarining qanday turi yoki shakli bo'lsin o'z maqsad va vazifalariga ega bo'lib, shu asosida o'z ko'zlagan natijasiga erishishi mumkin.

Ma'naviy tarbiyaning maqadlaridan biri insonning ko'ngil va aql dunyosini muvozanatga keltirish, uni nafs va hirs domiga tushib solishdan asrashdir²¹. Inson ijtimoiy mavjudot sifatida boshqa insonlar bilan, oilasi, mahallasi, mehnat jamoasi, yurti va butun jamiyat bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois, ma'naviy tarbiyaning asosiy vazifasi insonni o'z-o'zi bilan, oilasi va jamoasi bilan, jamiyat va tabiat bilan uyg'un yashashga o'rgatishdan iborat. Ma'naviy tarbiyaning turli yo'nalishlari va shakllari bir-birini to'ldirib, har biri o'z metod va vositalariga ega bo'lsa-da, ularni alohida emas, balki bir butun, kompleks tizim sifatida amalga oshirish zarur. Ayniqsa, hozirgi postmodern jamiyatning talab va tahdidlarini hisobga olib, tarbiyani ta'lim bilan yanada uyg'unlashtirish muhimdir: ta'lim o'z navbatida tarbiyalovchi xarakterga ega bo'lishi lozim. Zero, haqiqiy tarbiya, jumladan diniy tarbiya ham, birinchi navbatda ehtiros va nasihatga emas, balki ob'ektiv bilimga tayangan holda amalga oshiriladi. Yetarli bilim ega bo'lmagan inson esa osonlik bilan turli bid'atlar, xurofotlar va g'arazli targ'ibotlarning ta'siriga tushib qolishi

²⁰ Эркаев А. Маънавиятшунослик. Маънавият методологияси ва практикаси. 2-китоб. – Тошкент: Маънавият, 2018 -й. 323-б.

²¹ Уша асар

mumkin. Yuqoridagi fikrlarda ham ta'kidlab o'tilganidek har bir jamiyat fuqorolarining o'zining yurish-turish, muomala madaniyati, o'zini tutish, kiyinish va boshqa jihatlarni aks ettirgan ma'naviy qoidalari mavjud bo'ladi. Ushbu qoidalar asrlar osha ajdodlardan avlodlarga o'tib xalqning boy tajribasi, zarurati hamda ehtiyojiga aylanib qolgan axloq qoidalari deb ataladi. Axloq inson ma'naviyatining o'zagi, negizidir. Ma'naviyatni shakllantiruvchi eng asosiy mezonlardan biri ham axloq hisoblanadi.

Jahonda ko'p ajoyibotlar bor, lekin ularning eng go'zali insondir,- degan edi yunon faylasufi Sofokl. Insonning go'zalligi esa uning odobi bilan belgilanadi. "Inson odobi bilan go'zal"- degan naql ham xalqimiz tomonidan bejiz aytilmagan.

Tarbiya o'zida vorislik xususiyatini ham aks etadi. Chunki hech bir xalq yoki millat o'zining boy tajribasi, urf-odatlarini va an'analarini, bilimi-yu kashfiyotlarini o'z-o'zidan qabul qilib olmay, bu jarayon asosan tarbiya orqali amalga oshirilib boriladi. Ya'ni avlodlar o'z ajdodlari tomonidan tarbiya vositasi orqali barcha bilim va ko'nikmalarni qabul qilib, undan foydalanadi hamda unga sayqal berib, rivojlantirib o'zidan keying avlodlarga me'ros qilib qoldiradi. Bu jarayonda mavjud avlod vakillari uni takomillashtirishi ham mumkin va yoki tanazzuliga sababchi bo'lishi ham mumkin.

Inson kamoloti, uning shaxs sifatida shakllanishida ta'lim va tarbiyaning jumladan ma'naviy tarbiyaning o'rni va ahamiyati haqida buyuk mutafakkir ajdodlarimiz doimo qayg'urib, uning yechimlari haqida o'z asarlarida, fikr va mulohazalarida bayon etib kelgan. Xususan Abu Ali Ibn Sino, Farobiy, Beruniy, Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Fitrat, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy va boshqa ko'plab allomalarimizning farzand tarbiyasi, odob-axloq, ma'naviy tarbiya haqidagi oltinga teng fikrlari-yu, pand-nasihatlarini bizgacha yetib kelgan. Ajdodlarimiz qanchadan qancha asrlar mobaynida sevib o'qigan Farobiyning "Fozil odamlar shahri", Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Kaykovusning "Qobusnoma", Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Xamsa", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Abdulla Avloniyning "Turkiy "Guliston" yoxud axloq" singari asarlar shular

faoliyatga yo'naltiradi." Forobiy ta'lim, tarbiyaga birinchi marta ta'rif berib, ta'lim degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish, tarbiya - nazariy fazilatlarini, mas'ul hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o'rgatishdir,- deydi olim²⁶. Beruniy esa ota-onalarga qarata bolaning mo'tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga asosan bolani qattiq g'azablanishdan, qo'rqish va xafalikdan, uyqusizlikdan saqlash orqali erishilishini aytib, ularni xohlagan va foydali narsasini topib berishga, sevmagan narsasidan uzoqlashtirishga harakat qilish kerakligi uqtiriladi. Beruniy axloqiy tarbiyaga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan holda yondoshadi.

Abu Ali Ibn Sino ham farzand tarbiyasida ota-onani o'rini alohida ekanligini ta'kidlab shunday deydi: "Ota-ona davlat boshlig'ini yoki oddiy fuqaromni, baribir, u bola tarbiyasi borasida mas'uldir. Davlat boshliqlari, rahbarlar bola tarbiyasi xususida barchaga ibrat bo'lmoqlari lozim". Uning fikricha, tarbiyachi, ya'ni ota-ona "nafaqat siz bilan, balki amalda ham bola ruhiga ta'sir ko'rsatmog'i lozim" ekanligini ta'kidlaydi. Ibn Sino merosida ilm va axloq uyg'unligi masalasi alohida o'rin tutadi. Allomaning "Tadbiri manzil" risolasida tarbiya masalasi ko'proq tahlil etilgan. Xususan, "Tadbiri manzil"da inson tayyor shaxsiy sifat, odat va ko'nikmalar bilan tug'ilmasligi qayd etiladi. Bu xususiyatlar odamning tashqi muhitida sekinlik bilan o'zini va boshqalar tajribasi, ajdodlar an'analari hamda ta'lim-tarbiya o'zgalarning ta'siri ostida shakllanadi. Shaxs kamolotida ijobiy fazilat va odatlarni qaror toptirish qanchalik qiyin va mushkul bo'lsa, ma'naviy qiyofaga yopishib olgan salbiy jihat va odatlardan xalos bo'lish ham shunchalik murakkabdir.

Alloma nazdida bolalar tarbiyasini barvaqt boshlagan ma'qul: "Bola tana bo'g'inlari barqaror bo'lgan, uning tili to'g'ri, ravon gapirish va quloqlari tinglash va o'zgalar so'zlarini qabul qilish hamda o'rganilayotgan narsaga (tabiiy) moyillik paytdan boshlab uni ilmlar va axloq-odob (asoslari)ga o'rgatib borish lozim".

Inson tarbiyasi haqida so'z yuritilganda eng avvalo muqaddas Islom dinining manbalari bo'lmish Qur'oni Karim va Hadisi Shariflarga murojaat etmaslikni iloji yo'q. Chunki din ahkomlariga rioya qilib yashash shaxs ma'naviy tarbiyasining asosi

²⁶ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. — Т.: Халк мероси, 1993. — Б. 159

hisoblanib, komillikning vositasi bo'lib xizmat qiladi. Islomda ota-onaga mehr muhabbat, g'amxo'rlik, farzand tarbiyasi, oilaga sadoqat masalalariga alohida e'tibor berilgan. Kishilarni yaxshilik qilish, savob ishlarga qo'l urish, insofli, diyonatli, vijdonli bo'lish, mehr shafqatlilik, to'g'rilik, rostgo'ylik, birodarlarga ko'mak berish kamtarlikka chaqirish g'oyalari ilgari surilgan.

Jumladan Muhammad s.a.v: «Hech bir ota-ona farzandiga go'zal tarbiyadan ko'ra qimmatroq meros qoldira olmaydi» (Imom Termiziy rivoyati), deya marhamat qilganlar.

Demak muqaddas dinimiz ham tarbiyani inson kamolotining ajralmas qismi, deb hisoblaydi.

Islom madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan tasavvuf musulmon Sharqi mamlakatlarida inson tarbiyasi, komillikning asosini targ'ib etishga, Qur'on va Hadislarning mohiyatini ochib berishga, ilohiy ilmlar bilan dunyoviy ilmlarni o'zaro bog'lashga intilgan insonparvar va xalqsevar ta'limot sifatida VIII asr o'rtalaridan boshlab ilm sifatida shakllandi va rivojlandi. Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Naqshbandiy, Jaloliddin Rumiy va boshqalar o'z g'oyalari insonlarni borliq haqiqatini anglab yetishga chorlab ularni komillik sari yetaklagan. Jumladan tasavvufning yirik vakillaridan biri Xoja Bahouddin Naqshbandiy "Odamlarga yaxshilik qilish eng yuksak axloqiy va insoniy burch ekanligini ta'kidlab, insonlarni sham kabi bo'lishi va odamlarga yorug'lik berishini, o'zing esa qorong'uda bo'l deb ta'kidlagan ekanlar.

Xoja Bahouddin Naqshbandiyning "Dil ba yoru dast ba kor" — "Ko'ngil Ollohda bo'lsinu, qo'ling ishda" hikmatlarining inson ma'naviy dunyosi takomillashishidagi ahamiyati beqiyosdir.

Tasavvuf ilmi — inson haqidagi ilmdir. U inson odobini — ya'ni ma'naviyatini yanada yuksaltirdi. Bugun islom axloqining eng muhim qadriyatlarini bir nuqtaga jamladi. Shu tariqa tasavvuf komil inson nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqdi.

Hammamizga ma'lumki O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda ikkinchi Renessans deb nomlangan Uyg'onish davri yuz berdi. Albatta Uyg'onish davrining o'z belgilari,

sabalari, vositalari hamda sababchilari bor. Amir Temur tomonidan tashkil etilgan ulkan davlat, undagi ilm-marifatning gullab yashnashiga yaratilgan sharoit. Amir Temurdek adolatli hukmdor Movaraunahr diyorida o'ziga xos muhitni kashf etdi. Aynan shu davrda Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk namoyondalar voyaga yetib, jamiyat va davlatni har doimgidan ham bir pog'onaga ko'tarilishiga sababchi bo'lishdi. Xususan ajdodlarimiz nafaqat o'z xalqini emas, balki zabt etgan mamlakat va xalqlarni ham yuksak axloq tamoyillari orqali boshqargan. Yuksak axloqqa tayanga bu adolat Amir Temurning quyidagi so'zlarida ham jamlangan: "Qaysi mamlakatni zabt etgan yoki qo'shib olgan bo'lsam, o'sha yerning obro'-e'tiborli kishilarini aziz tutdim; Sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixlariga ta'zim bajo keltirdim, hurmatladim, ularga suyurg'ol vazifalar berib, maoshlarini belgiladim; o'sha yurtni ulug'larini og'a-inimlarimdek, yoshlari va bolalari bo'lsa o'z farzandlarimdek ko'rdim"²⁷.

Bundan ko'rinib turibdiki qaysi yurtning podshohi o'zining go'zal axloqi, qilgan ishlari bilan o'z fuqorolariga namuna bo'lar ekan, o'sh davlat yoki xalqning kelajagi buyuk, ertasi yorug'dir.

Shu davrning yorqin vakili buyuk bobomiz Hazrat Alisher Navoiyning ham ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini aks etgan bir qancha asarlari va ulardagi ilg'or g'oyalari necha asrlar o'tsa hamki o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Jumladan bobomiz aytganlaridek: "ota-onani hurmat qilish farzandlar uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmatning qancha ortiq bo'lsa ham kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi! Ikki dunyong obod bo'lishini istasang, shu ikki odamning roziligini ol! Tunu kuningga nur berib turgan – birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh. Ularning so'zlaridan tashqari bir narsa yozma, ular chizgan chiziqdan tashqariga bir qadam ham bosma. Hamma xizmatni sen odob bilan bajar, "adab" so'zidagi "dol" kabi qomatningni ham qil".²⁸ O'z davrida buyuk ajdodlarimiz tomonidan aytilgan inson tarbiyasi bilan bog'liq bunday teran fikrlar hamda o'g'itlar nafaqat o'sha davr balki hozirgi zamon uchun ham nihoyatda qadrlil bo'lib, ularga amal

²⁷ Amir Temur ug'itlari. Toshkent, "Navro'z". 1992-йил. 36-бет

²⁸ Отамурад С. Хусанов С ва бошқалар. Маънавият асослари. Укув қўлақма. Т. А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. "ЎАЖБНТ" маркази. 2002. - 192 бет.

qilish insonni kamolot sari yetaklaydi va martabasini ziyoda qilishga undaydi.

Inson shaxsini takomillashtirishda ma'naviy tarbiyaning ahamiyati haqida izchil fikrimizni davom ettirar ekanmiz XIX asr oxiri va XX asr boshlarida xalqimizni ma'rifatlil qilishga, farzandlar tarbiyasiga keng yo'l ochib ulami jahon ilm-fanidan xabardor bo'lishga chortlagan hamda bu yo'lda o'zlari bor kuch va g'ayrati bilan intilgan ma'rifatparvar bobolarimiz: Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Abdulvohid Burhonov, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Qodiriy, Fayzulla Xo'jayevlarning xizmatlarini yodga olishimiz ham joizdir. Jadidizm asoschilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy jamiyat hayotini insonparvarlashirish uchun fuqarolar milliy ongini o'stirish, millat milliy o'zligini anglashi darkor, deb hisoblardi. Milliy ong, milliy g'urumi shakllantirishning eng muhim vositasi maorif, deb bilardi. Maorifni isloh qilmasdan turib jamiyatni insonparvarlashitirib bo'lmaydi, deb hisoblardi²⁹.

Behbudiy yoshlarga murojaatnomasida, jumladan, bunday yozadi: "...Ushbu taraqqiy etgan zamonda ilmsiz, ma'rifatsiz, quruq taassub bilan yashab bo'lmaydi. Hozirgi zamonaviy taraqqiyotva rivojlanish shunday kuchli bo'lmoqdaki, ozgina fursat o'tar-o'tmas quruq va chirigan taassublarimizni ildizi bilan qo'porib tashlaydi. Shuning uchun barcha yoshlarimiz bu borada bir narsaga tayanishlari mumkin. Bu narsa ilmu ma'rifatdir"³⁰.

Tarbiyaning naqadar muhim ekanligi haqida ma'rifatparvar, taniqli pedagog Abdulla Avloniyning ushbu fikrlarini keltirishimiz nihoyatda o'rinli bo'lib, u quyidagi fikrlarni aytadi: «Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot - yo falokat, yo saodat – yo falokat masalasidir»³¹. Tarbiyaga e'tiborsizlikning oqibati nimalarga olib kelishi haqida esa kuyunib, "Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar, beboshlar, o'g'rilar, giyohvandlar va nashavandlar. kecha tarbiyalariga e'tibor berilmagan bolalardir", deb yozib qoldiradi. Ushbu fikrlardan kelib chiqib, shaxs tarbiyasi bir kishi yoki muayyan kasb egalarni ishi emas, balki butun bir jamiyat, millatga xos ishdur. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq

²⁹ Ойна, 1913-йил. -1-сон

³⁰ "Ойна" журнади, 1914 йил.41-сон.

³¹ Абдулла Авлоний. "Туркий гулистон ёхуд ахлоқ". – Тошкент. Ўқитувчи. 1992

ekanini bilishimiz mumkin.

Abdulla Avloniyning fikricha, inson butun mavjudotning sohibidir. Chunki insonning aql-zakovati bor. U shu qudrat yordamida ilm egallaydi, ilmi tufayli butun dunyon boshqaradi. Aql-insonning pir-u komil, murshid-u yagonasidir. Ruh-ishlovchi, aql-boshlovchidir. Inson o'zining aql-farosati tufayli boshiga tushadigan har qanday balo-qazodan saqlanadi, deb fuqarolar, ayniqsa, yoshlar aqliy kamoloti haqida tinimsiz qayg'urish -insonparvar jamiyatning muhim vazifalaridan biri bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi³².

Adabiyotshunos olim Abdurauf Fitrat "Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq. Bolalar axloqiy tarbiyani muhitdan oladilar, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvga o'xshaydi, suv idishning shaklini olganidek, bolalar ham muhitning odob-axloqini qabul qiladilar", deydi.

Umuman olganda jadidchilik xalqni qoloqlikdan, hamda mustamlaka istibdodidan olib chiqishga qaratilgan, ilm-fanni zamonaviy yutuqlaridan bohabar bo'lishga, mustaqil davlat tuzishga qaratilgan demokratik harakat bo'lib, bu maqsadni ro'yobga chiqarishni eng asosiy yo'li ta'lim tarbiya ekanligini anglab yetgan edi.

Ma'naviy tarbiyaning shaxs kamolotidagi o'rni va ahamiyati masalasi nafaqat milliy ma'naviy merosimiz vakillari qoldirgan ilmiy-ma'rifiy manbalarda, balki umumbashariy qadriyat darajasiga ko'tarilgan an'analar hamda turli xalq va millatlarning boy tarixiy-madaniy tajribasida ham o'z ifodasini topgan bo'lib, ularni o'rganib, undan o'zimizga kerakli tomonlari olish ham ma'naviy tarbiya tizimimizni yanada boyitishning asosiy shartlaridan hisoblanadi. Antik davr namoyondalarining asarlari, G'arb va Sharqning ma'naviy tarbiya sohasida yuksak taraqqiy etgan davlatlarining boy tajribalari, buddaviylik, xristianlik dinlaridagi ma'naviy tarbiya masalalarini o'rganish davomida ham biz ma'naviy tarbiyaning qanchalik muhim ekanligini anglab olamiz.

³² Абдулло Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Тошкент, 1992, 17-бет.

Xususan, Antik davrdayoq yunonlarda insonning yashashdan maqsadi baxtli bo'lish (evdonizm), zavq-shavq tuyish, lazzatlanish (gedonizm), degan qarashlar qaror topgan. Ular ezgulikning tarkibiy qismi hisoblangan. Lekin baxtning o'zi nima, hayot lazzati nima, degan savolga bir xil javob berilmagan. Natijada, baxt ba'zan boylik orttirish, to'q yashash, xohish-istaklarni amalga oshirish imkoniga ega bo'lish, lazzat ham ba'zan, xushta'mli ovqatlarni iste'mol qilish, nafsini qondirish, aysh-ishrat surish qabilida o'ta jo'n tushunilgan. Bu ham axloqiy tarbiyada chalkashlik va ziddiyatlar³³ hosil qilgan. Bunday tushunish moddiy jihatdan yaxshi ta'minlangan kishilarning bir qismida nafs va hirsga moyillikni rag'batlantirgan. Shu sababdan o'tmishning ayrim ilg'or mutafakkirlari, diniy arboblari maishatparastlikni, nafsni qattiq qoralab, ularni yovuzlik, deb talqin qilgan. Antik davrning buyuk faylasufi Suqrotning «ovqatlanish yashash uchun kerak, yashash ovqatlanish uchun emas»³³ degan hikmati turli ko'rinishlarda, ifodalarda hozir ham mashhur. Aksincha, ezgulik, donishmandlar fikricha, nafs va hirsni jilovlash, haqqa, haqiqatga intilishdir. Haqni esdan chiqarishda bevosita yoki bilvosita sabab bo'ladigan har qanday istak-xohish, intilish va ehtiyojni ular yovuzlikka kiritgan.

Nemis faylasufi Immanuel Kant o'z asarida: "Inson faqat tarbiya orqali inson bo'ladi, uning qandayligi tarbiyaning natijasidir", degan fikrni bildiradi.

Xitoy donishmandi Syun-Szi esa "Chaqaqlaqlar hamma erda bir xil yig'lashadi. Katta bo'lganlarida esa turli qiliqlar qilishadi. Bu - tarbiyaning oqibati", deb yozgan edi.

Tarbiya borasida Sa'diy Sheroziy shunday misralarni bitgan:

Minbarning poyida tursa ham eshak,

Tarbiya yuqmaydi, bo'lmaydi odam.

Tarbiya ko'rmayin ulg'aysa kishi.

Eshak bo'lib qolur yuzga kirsam ham.

Sa'diy Sheroziyning fikridan ko'rinib turibdiki, hayvonni qancha tarbiyalasa ham u inson bo'lmaydi, ammo tarbiya ko'rmagan kishi esa qancha yoshga kirmasin o'zida hayvoniy jihatlarni aks ettiradi. Demak bundan biz insoniylikning bosh omili bu uning olgan tarbiyasiga bog'liq ekanligini bilib olishimiz mumkin.

³³ Эркин А. Маънавиятшунослик. Маънавият методологияси ва практикаси. 2-китоб. – Тошкент: Маънавият, 2018 -й. 377-б.

Yuqoridagi inson, shaxs tushunchalariga berilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki bu tushunchalar asosan ma'naviyatga xos tushunchalar hisoblanadi shu bilan birgalikda ma'naviyat tushunchasi ham inson va shaxs tushunchalariga tegishlidir. Chunki borliqda insondan boshqa biror jonzotda ma'naviyat mavjud emas. Ma'naviyat esa avvalo tarbiya orqali shakllanadi. Inson tushunchasining ma'naviyatga xosligi shundaki u tug'ilgandan biologik mavjudot ya'ni individ bo'lib dunyoga keladi. Uning inson yoki shaxs bo'lib shakllanishi esa oilaviy munosabatlar, jamiyat va atrof-dagilar bilan muloqoti orqali shakllanadi. Insonning mavjudligi ya'ni tug'ilishi uning moddiy tomoni hisoblansa uning tili, muomalasi, dunyoqarashi, odob-axloqi ma'naviy tomoni hisoblanadi. Shaxs kamolotida turli omillar muhim o'rin tutishi bilan birgalikda ma'naviy tarbiya omili alohida alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy tarbiya tufayli inson shunchaki mavjud emas balki komillikka qarab qadam qo'yadi, barkamollik sifatleri shakllanadi. Barcha insonlar ham tug'ilganda shaklan birozi har xil bo'lsada ruhiy tomondan bir xil bo'ladi ya'ni shunchaki bir biologik jism sifatida paydo bo'ladi. To'g'ri unda irsiy tomondan ayrim qobilyatlar, harakterlar mavjud bo'ladi ammo bu harakter va qobilyatlar faqat tarbiya tufayligina yuzaga chiqib rivojlanadi. Agar tarbiya bo'lmas ekan undagi irsiy tomondan me'ros bo'lib o'tgan barcha sifatlar yashirin holatda qolaveradi. Shunday ekan tarbiya bu hayot mamot masalasi. Tarbiya qanchalik mukammal bo'lsa inson shaxsi ham rivojlanib o'zida komillik sifatlerini aks eta boshlaydi. Komil insonlardan iborat jamiyat esa taraqqiyot sari qadam qo'yadi.

II BOB. GLOBALLASHUV DAVRIDA SHAXS MA'NAVİY TARBIYASINING IJTIMOİY XUSUSIYATLARI

2.1. Globallashuv davrida ma'naviy tarbiya transformatsiyasi

Bugun biz insoniyat tarixida oldingi davrlardan tubdan farq qiladigan, tez suratlarda o'zgarib borayotgan o'ta shidatli va murakkab bir davrda yashayapmiz. Bugungi yangi davrning mohiyati haqida turlicha qarash hamda fikrlar mavjud. Davlat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, siyosatchilar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha ta'riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. "Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamogda... Ammo ko'pchilik ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg'otmogda"³⁴. Shubhasiz, mazkur qarashlarning har birida muayyan darajada hayotiy asos va obyektiv haqiqat mujassamdir.

Chunki bugungi hayotimizda kuzatilayotgan jarayonlar o'z belgi va xususiyatlari bilan barcha ta'riflarga mos kelishini hozirgi hayot haqiqatlari aniq va ravshan ko'rsatib turibdi. Avval iqtisodiy tushuncha sifatida paydo bo'lgan globallashuv bugungi kunda nafaqat ushbu sohada balki jamiyatning ma'naviy, siyosiy, ijtimoiy va boshqa barcha sohalarida yaqqol ko'zga tashlanib, ularga o'z ta'sirini o'tkazib kelmogda.

Globallashuv jarayonining mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyoti, siyosiy barqarorligi va ma'naviy hayotiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ijobiy hamda salbiy ta'sirlarini Hindistonning atoqli davlat va jamoat arbobi Mahatma Gandhi tomonidan ilgari surilgan quyidagi teran va ibratli fikrlarda o'zining yorqin ifodasini topgan: "Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman".

³⁴ I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.- 110- bet

Globallashuv jarayonlarining hayotimizga tobora shiddat bilan kirib kelishining asosiy omillari haqida so'z yuritganda, obyektiv ravishda tan olish lozimki, bugungi sharoitda har bir davlatning taraqqiyoti nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar bilan, balki jahon miqyosidagi boshqa mintaqa va hududlar bilan ham tobora uzviy bog'lanib bormoqda. Shu bois, biror davlat yoki xalqning mazkur jarayonlardan chetda qolishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini anglash qiyin emas.

Biz, o'zbeklar, boshqa xalqlar singari, zamonaviy sivilizatsiya, uning keltirgan texnologiyalari, globallashuvning salbiy ta'siri va ommaviy madaniyatdan butkul voz kecha olmaymiz. Shu bilan birga, ularning inson hayotiga zararli ta'sirini iloji boricha kamaytirishimiz zarur. Buning yo'li — ta'lim-tarbiyani, ayniqsa ma'naviy tarbiyaning mazmuni, metod va vositalarini zamon talablariga muvofiq takomillashtirishdan iborat. "Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi xarakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, - deb yozgandi Islom Karimov, - endi ilgaridek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas"³⁵.

Globallashuv jarayonlarining ma'naviyat sohasiga ko'rsatayotgan ta'siri turli fanlar xususan, falsafa, jamiyatshunoslik, antropologiya fanlarida o'z aksini topishi zarur.

Tabiiyki, globallashuv hodisasining hatto eng muhim jihatlari va asosiy yo'nalishlarini ham mazkur tadqiqot doirasida to'liq qamrab olish mushkul. Shu bois, ushbu bobda globallashuv va milliy ma'naviyat o'zaro munosabatlari, xususan, globallashuvning milliy ma'naviyatga ko'rsatayotgan hamda ko'rsatishi ehtimol bo'lgan ta'siri xususida fikr yuritish bilan cheklaniladi.

Ma'naviyatni bir xonadonda jamlangan bebaho boylikka qiyoslasak, tashqaridan esgan kuchli shamol uy ichidagi tartibni buzishini hech bir uy egasi istamaydi. Xuddi shuningdek, biz ham yot g'oyalar, turli oqim va mafkuralarning milliy ma'naviyatimizga salbiy hamda vayronkor ta'sir ko'rsatishining oldini olish maqsadida zarur himoya choralari ko'rishimiz tabiiydir.

³⁵ Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: «Ma'naviyat», 2008. 112-b.

Tashqaridan yo'naltirilayotgan mafkuraviy ta'sirlarga nisbatan himoya mexanizmlarini ishlab chiqishdan avval, avvalo, qaysi ta'sirlarni qabul qilish, qaysilarini esa rad etish zarurligini aniq mezonlar asosida belgilab olish muhimdir. Zero, bugungi kunda boshqa xalqlar ma'naviy ta'siridan mutlaqo xoli bo'lgan birorta ham milliy ma'naviyat mavjud emas.

Hatto Avstraliya chakalakzorlari, Afrika savannalari hamda Janubiy Amerika changalzorlarida istiqomat qilayotgan qabilalar ham qo'shni jamoalar va zamonaviy sivilizatsiya ta'siridan butunlay chetda emas.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, boshqa xalqlarning ma'naviy merosidan oqilona bahramand bo'lgan jamiyatlar ma'naviy taraqqiyotning yuqori bosqichlariga ko'tarilgan.

Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy va ma'naviy taraqqiyoti, hududning Sharq va G'arbni bog'lovchi qadimiy karvon yo'llari chorrahasida joylashgani bilan uzviy bog'liqdir. Ana shu geostrategik mavqe tufayli mintaqa xalqlari ham Sharq, ham G'arb sivilizatsiyasining boy madaniy-ma'naviy merosidan bahramand bo'lgan.

E'tiborli jihati shundaki, xalqimiz mazkur ta'sirlarni shunchaki qabul qilish bilan cheklanmay, ularning ijobiy jihatlari saralab o'zlashtirgan hamda ularga ijodiy yondashish orqali yangi taraqqiyot bosqichlariga ko'tarilgan. Bu holatni ma'naviyatning muhim tarkibiy unsurlari — ilm-fan, diniy e'tiqod va san'at sohalari misolida ham yaqqol kuzatish mumkin. Nafaqat yurtimiz, balki jahon madaniyati tarixida ham munosib o'rin egallagan allomalarimizning ilmiy merosi yuqoridagi fikrni yaqqol tasdiqlaydi. Jumladan, ana shunday buyuk ajdodlarimizdan biri — Abu Rayhon Beruniy — Xitoy, Hindiston, Yunoniston va Rim falsafasi hamda tabiiy fanlarini chuqur o'zlashtirgan olim sifatida e'tirof etiladi. U Hindistonda bo'lgan davrida ushbu mamlakatning ilm-fani va madaniyatini mukammal o'rganish uchun qadimgi hind tili — sanskritni bilish zarurligini angelaydi. Shundan so'ng u sanskrit tilini qisqa muddatda puxta egallab, qadimgi hind madaniyati va ilmiy merosini bevosita asl manbalar asosida tadqiq eta boshlaydi. Shuningdek, yunon va rim ilmiy-falsafiy an'analari chuqur o'rganish maqsadida yunon, lotin hamda qadimgi yahudiy tillarini ham o'zlashtirgani uning ilmiy izlanishlarga naqadar keng qamrovli

va tizimli yondashganini ko'rsatadi.

Jahon madaniyati tarixida chuqur iz qoldirgan Abu Nasr al-Farabi ham ko'plab xalqlar va millatlarning tillarini bilgan, ularning madaniy va ma'naviy merosini puxta o'rganishga e'tibor qaratgan. Bunday buyuk olimlar misollari ko'plab keltirilishi mumkin. Eng asosiy jihati shundaki, mazkur ajdodlarimiz nafaqat jahon xalqlari ma'naviyatini o'rganish bilan cheklanib qolmagan, balki uni chuqur tahlil qilgan, muhim jihatlarni rivojlantirgan va shu orqali olamshumul kashfiyotlarga yo'l ochgan.

Ajdodlarimiz tarixi shuni ko'rsatadiki, jahon xalqlari ma'naviyatiga hurmat bilan yondashish, ularning muhim jihatlarni puxta o'rganish va ijodiy rivojlantirish orqali ma'naviyatning eng yuqori cho'qqilariga erishish mumkin. Bugungi kunda bizga ta'sir o'tkazayotgan yoki ta'sir ko'rsatishga uringan g'oyalarning qaysi birini qabul qilish, qaysi birini rad etish lozimligini aniqlash uchun esa puxta va tizimli tahlil zarur. Afsuski, bunday tahlilni o'tkazishda ba'zan beparvolik, ba'zan esa bilim yetishmasligi halaqit qilmoqda. Natijada, qabul qilinishi lozim bo'lgan g'oyalarni rad etish yoki rad etilishi lozim bo'lgan g'oyalarni qabul qilish holatlari ham uchrab turibdi.

Ba'zi g'oyalar shundayki, ular ochiq yuz bilan eshigimizni taqillatib, bevosita kirib keladi. Boshqalari esa xuddi "o'g'ri" kabi, tuynuk izlab, yashirincha kirishga urinadi.

Ochiq yuz bilan keladigan g'oyalar milliy ma'naviyatni boyitish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu g'oyalar asosida farzandlarimiz tarbiya va ta'lim oladi. Ular umuminsoniy ezgu qadriyatlarni ifodalaydi, chunki milliy ma'naviyatlar o'zaro ta'sir va almashinuv jarayonida yuksaladi. Har qanday xalq ma'naviyati rivojiga e'tibor qaratilsa, uning boshqa xalqlarning udum va an'alarini qanday egallab, ijodiy ravishda rivojlantirib borganini yaqqol ko'rish mumkin.

O'zbek milliy ma'naviyati ham uzoq va yaqindagi qo'shni xalqlarning ilg'or an'analari bilan boyib, rivojlanib bordi. Ma'naviyatimizning taraqqiyot tarixini kuzatganimizda, bu haqiqatga yana bir bor ishonch hosil qilish mumkin. XX asr boshlaridagi o'zbek madaniyati va ma'naviyati bilan uning ilgari surilgan davrlardagi

holati o'rtasida sezilarli tafovut mavjud. Ushbu tafovutni adabiyot, san'at, ilm-fan, hatto kundalik yurish-turish va kiyim-kechak madaniyati sohalarida ham yaqqol kuzatish mumkin. XX asr boshlarida o'zbek adabiyotida dramaturgiya janri hali shakllanmagan edi, shuning uchun milliy teatr san'ati haqida gapirish imkoniyati bo'lmagan. Shu davrda Munavvar Qori Abdurashidxonov, Mahmudxoja Behbudiy va Abdurauf Fitrat kabi ma'rifatparvarlar sa'y-harakatlari natijasida dramaturgiya asta-sekin shakllana boshladi va keyinchalik teatr san'ati vujudga keldi. O'sha paytlarda teatrni o'zbek millati uchun begona, yot g'oya deb hisoblaganlar kam emas edi. Shu bilan birga, dramaturgiya va teatrni rad etish faqat og'zaki tanqid bilan cheklanib qolmas, amaliy qarshilik va e'tiborsizlik shaklida ham namoyon bo'lgan.

San'atning turli shakllarini O'zbekistonga joriy etishga intilgan insonlarni tanqid qilish, ularni masxara qilish va hatto jazolash kabi amaliyotlar ko'pincha o'zlarini milliy ma'naviyatning himoyachilari deb atagan shaxslar tomonidan amalga oshirilgan. Biroq vaqt o'tishi bilan shuni anglash mumkinki, har narsaga oliy hakam sifatida qaragan bunday baholovchilar teatr san'atini milliy ruhiyat va tarbiya tizimiga yot deb e'lon qilgan bo'lsalar-da, amalda, ular o'zlarining xatti-harakatlari bilan milliy ma'naviyatning rivojlanishiga to'siq bo'lgan. Shu tariqa, teatr san'ati va dramaturgiya nafaqat madaniy yangilik, balki milliy ma'naviyatni boyituvchi muhim vosiqa sifatida qabul qilinishi lozimligini tarixiy tajriba ko'rsatadi. Bugungi kunda teatrlar soni bo'yicha O'zbekiston jahonda yetakchi o'rinlardaturadi va teatrnig kuchi yordamida yoshlar tarbiyasiga ta'sir etish yanada samarali ekanligi yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Milliy qadriyatlarimizdan yana biri milliy kiyimlarimiz hisoblanadi. O'tgan asr davomida ushbu qadriyatimiz uzoq yo'lni bosib o'tdi va g'aroyib hodisalarni boshdan o'tkazdi. XX asr boshlarida telpak, chopon, etik, erkaklarimizning qishki kiyimi hisoblangan bo'lsa, do'ppi, yaktak yoki ko'ylak, kavush yoki shippak, oq rangli lozim yozgi kiyimi hisoblanar edi. Globallashuv munosabati bilan esa bu sohada ham katta o'zgarishlar sodir bo'lib milliy kiyimlarimiz bir muncha zamoniy tuzga kirdi. Ammo shu bilan birgalikda milliylikimizdan yiroq hamda ma'naviy tarbiyamizga zid kiyimlar va kiyinish madaniyati ham paydo bo'ldi.

Yurtimizda tarixida ilm-fan, din, san'at va ilm sohalarida yetishib chiqqan allomalarimiz butun jahon ma'naviyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Abu Nasr al-Farobiy jahon falsafasining rivojiga katta hissa qo'shgan bo'lsa, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud az-Zamaxshariy, Muso Al-Xorazmiy va Mirzo Ulug'bek kabi olimlarimiz esa jahon fanini yangi bosqichlarga ko'tarishdi. Shuningdek, Ismoil Buxoriy, At-Termiziy, Al-Moturidiy, Abuxoliq Gijduvoni, Bahouddin Naqshbandiy va Ahmad Yasaviy kabi ulamolarimiz hadis, kalom, fiqh va tasavvuf sohalarida yorqin yulduzlar sifatida olamga tanilgan. Bundan tashqari, Amir Temur va Mirza Boburning harbiy san'ati darajasi ham butun jahon tomonidan e'tirof etilgan. Shu tariqa, tarixiy shaxslarimizning ilm, ma'rifat, san'at va strategiya sohalaridagi yuksakligi milliy ma'naviyatimizning jahon madaniyati bilan uzviy aloqada rivojlanganidan dalolat beradi.

Sho'rolar davrida milliy qadriyatlarimizni dunyo miqyosida targ'ib qilish imkoniyati mavjud bo'lmaganligi bir tomondan, o'z yurtimizda ularni qadrlashga ham yo'l qo'yilmaganligi boshqa tomondan tarixiy haqiqat edi; natijada ko'plab qadriyatlarimiz toptalgan. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng esa ushbu yo'qotilgan qadriyatlarni tiklash, milliy merosimizni e'zozlash va keng targ'ib qilish imkoniyati yuzaga keldi. Bugungi kunda o'zbek milliy kurashini jahon maydoniga keng yoyish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, shu jumladan dunyoning ko'plab mamlakatlarida tashkil etilgan o'zbek kurashi federatsiyalari, mazkur siyosat va sa'y-harakatlarning yaqqol namunasidir.

Bugungi kunda jahon O'zbekistonni uning milliy madaniy merosi, boy tarixi, tili, madaniyati, urf-odat va an'analarida mujassam umuminsoniy qadriyatlari, shuningdek, san'at va arxitektura hamda ilm-fan va madaniyat sohalarida erishayotgan yutuqlari orqali tan olmoqda. Shu misollar shuni ko'rsatadiki, biz globallashuv jarayonida nafaqat passiv ravishda qabul qiluvchi, balki faol targ'ib qiluvchi va o'z madaniy merosini dunyoga yetkazuvchi pozitsiyada bo'lishimiz ham mumkin. Faol targ'ib qiluvchiga aylanishimiz uchun esa bizda kuchli ma'naviy muhit shakllanib ulgurgan.

Har bir hodisaning yaxshi va yomon tomonlari mavjud bo'lganidek.

globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Bugungi kunda uning keskin va keng qamrovli ta'siri deyarli barcha sohalarida yaqqol sezilmoqda. Xususan, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalari mustahkamlanishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, shuningdek ishchi kuchining erkin harakati uchun qulay sharoitlar yaratilishi, ko'plab yangi ish o'rinlari ochilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari hamda ilm-fan yutuqlarining tezkor tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy asosda uyg'unlashuvi, ta'lim-tarbiya sohasida hamkorlikning rivojlanishi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangi sifat kasb etishi, shuningdek ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi kabi jarayonlar — ularning barchasi globallashuv natijasida yuzaga kelgan ijobiy o'zgarishlardir.

Ammo hozirgi davrga kelib asosiy muammolardan biri shuki turli madaniyatlarni targ'ib qiluvchidan, iste'mol qiluvchiga aylanib qolayotganimiz naqadar achinarli va ayanchlidir. Globallashuv natijasida millatimizga yot bo'lgan turli yovuz g'oyalar ham kirib keldiki, unga qarshi kurashishda biz faqat va faqat kuchli ma'naviy tarbiyaga tayanmog'imiz lozim. Bu haqida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: "Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-karshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, g'iyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Mana shunday va boshqa ko'plab tahdidlar hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani - ayni haqiqat va buni hech kim inkor etolmaydi"³⁶, - degan edi. Shu nuqtai nazardan qaraganda biz uchun xavf-xatarga aylangan ommaviy madaniyat ham bir guruh boylikka o'ch odamlar tomonidan zamonaviy axborot-texnologiyalarining imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda axloqiy buzqlik, zo'rovonlik, o'z manfaatini o'zgalar manfaatidan ustun qo'yish, "men"ni ulug'lash kabilarni aks ettiruvchi har xil o'ta sayoz madaniyat asarlarini moddiy va ma'naviy hayot maydonlariga tashlab, ko'ngilocharlik bahonasida tijoratga asoslangan

³⁶ Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar-egzu maqsadimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil/1 iyul.

iste'molchilikni yo'lga qo'yib xalqlarni o'z milliy tajribasiga asoslangan madaniyatidan judo qilish evaziga katta daromad topishga qaratilgan aksilmadaniyat sifatida shakllandi.

Globallashuv hamda u orqali yetib kelgan "ommaviy madaniyat" ning salbiy ta'siri haqida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev alohida to'xtalib, "Avvalambor, "Ommaviy madaniyat" ko'rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, gihoyvandlik, diniy ekstrimizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrash, ularning ta'lim-tarbiyasiga har birimiz mas'ul ekanimizni unutmasligimiz kerak. Bu borada biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy ma'naviy meroslariga tayanamiz"³⁷, deb ta'kidlaydi

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ham "Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch" asarlarida "ommaviy madaniyat"ning zararli xatarlaridan ogohlantirib, jumladan, shunday deyilar: "Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holat bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda"³⁸.

"Ommaviy madaniyat"ning tarqalishi turli davrlarda turlicha kechgan. Qadimgi davrlarda "ommaviy madaniyat"ni tarqatish bilan shug'ullanadigan masus idoralar ham tashkil etilgan. Shu bilan birgalikda bu ishga savdogarlar, sayyohlar, olimlar ham jalb etilgan bo'lib, ular o'z karvonlarida turli buyumlar bilan birgalikda muhim bir "siyosiy mahsulot" ya'ni "ommaviy madaniyat"ni ham tarqatganlar. Ammo bugungi davrga kelib televideniye, radio, internet, kabi ommaviy axborot vositalarining paydo bo'lishi bilan "ommaviy madaniyat" ni targ'ib qilishning usul va vositalari o'zgardi.

³⁷Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston", 2021. 457-bet

³⁸ I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent. Ma'naviyat - 2008. 81-bet.

"Ommaviy madaniyat" o'ziga xos rivojlanish yo'lini bosib o'tganligini AQSH davlatida misol keltirish mumkin. AQSH davlati o'zining geosiyosiy manfaatlarini himoya qilish uchun madaniyatlarni yaqinlashtirish orqali turli millatlar orasida tafovutni yo'qotgan va "amerikalik" degan yagona millatni shakllantirish siyosatini olib borgan cdi.

Umuman olganda Globallashuv hamda "Ommaviy madaniyat" tushunchasi yaqin davrda paydo bo'lgan tushunchalar hisoblansada, uning belgilari bundan bir necha ming yillar oldin ham kuzatilib, insoniyat taraqqiyoti davomida hozirga qadar davom etib kelmoqda. Faqatgina bu jarayonda qaysidir xalq yoki davlatning ta'siri muayyan davrda ustunlik qilib tarqatuvchi hisoblangan bo'lsa yana qaysidir iste'molchi bo'lib kelgan. Ya'ni bu jarayon o'zgarib turgan. O'zbek davlatchilik tarixida ham xuddi shu jarayon sodir bo'lgan bo'lib, muayyan davrda jahon ilmfaniga, tarixiy taraqqiyotiga ta'sir o'tkazgan bo'lsa, yana bir muayyan davrda esa faqatgina iste'molchi bo'lib qolgan. Bu jarayonda biz eksport qiluvchidan ko'ra qabul qilish jarayonini ko'proq tahlil qilishimiz hamda ogohlik va mas'uliyatni yanada oshirishimiz zarur. Globallashuv milliy ma'naviyatga ham ta'sirini o'tkazar ekan bu jarayon uning iqtisodiy, siyosiy va boshqa ta'sirlariga nisbatan ancha xavfli hisoblanadi. Chunki iqtisodiy, siyosiy bo'ladimi bu ta'sirlar ko'rinib turadi va ularni ta'sir etayotgani sezish va unga qarshi choralar ko'rib, himoyalaniish mumkin. Ammo ma'naviy, axloqiy ta'sirlarni esa ko'z bilan ko'rib quloq bilan eshitib, o'z vaqtida uni anglab olish mumkin emas. Bunday ta'sirlarga qarshi turish uchun esa milliy ma'naviyatlar o'zini asrab qolishi va global ta'sirlarga javob bera olishi uchun o'zining hozirgi zamonda erishilayotgan yutuqlari bilan yanada boyitib borishi muhim ahamiyatga ega. Turli yot ma'naviy ta'sirlar kirib kelgan jamiyatning barcha sohaları tez bo'lmasada, ammo asta sekinlik bilan bo'lsada, o'z "iz"larini qoldiradi. Bunday turdagi "ta'sirlar"ga eng beriluvchan, uni oldida hali zaifroq bo'lgan kuch bu yoshlar hisoblanadi. Shulardan kelib chiqqan holda, globallashuv jarayonida turli g'oya va mafkuralarni aynan yoshlar orqali "ko'prik" sifatida foydalanishlariga yo'l qo'ymasliklari uchun, millatparvar, xalqchil, umuminsoniy tamoyillarga asoslangan kuchli ma'naviy muhit yaratib, kuchli ma'naviy tarbiya asosida qurollantirish bugun

ushbu masalaning qanchalik muhimlik darajasini belgilab beradi. Davlatimizning jahon miqyosida amalga oshirayotgan siyosati ko'proq natija hamda yutuqlar keltirishini istasak va eng avvalo, yosh avlodni kelajakda davlatimizni tayanchi sifatida tarbiyalashga qaratilgan ishlarni kuchaytirishimiz, globallashuv jarayonlariningning tub mohiyati va asosiy ko'rinishlarini tubdan tahlil qilish maqsadga muvofiq. Ushbu hodisani chuqurroq o'rganish ortidan faylasuf hamda siyosatchilar o'ziga to'g'ri yo'l tanlab olishi va muhim qarorlar qabul qilishiga zamin yaratilishi mumkin.

Bugungi tezkor globallashuv jarayonida milliy ma'naviyatni saqlab qolishning yagona chorasi insonning qon-qoniga ma'naviyatni singdirishdir. Xo'sh, bu qanday amalga oshiriladi?

Bu muhim vazifa haqida Birinchi prezidentimiz har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinishi, biz ham farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta'bir joiz bo'lsa, avvalo, ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarurligi, shu orqali yoshlarimiz milliy o'zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishi kerakligi va ana shunda johil aqidaparastlarning "da'vati" ham, axloq-odob tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmasligini ta'kidlab o'tgan.

Tarbiyaning eng ilg'or usullaridan biri ibrat va namuna bo'lish hisoblanadi. Ya'ni, yoshlarimizga tarbiyadek ulug' ne'mat tuhfa etadigan mutaxassislar, ustoz-tarbiyachilar, avvalo, o'zlari tarbiyalangan bo'lmoqlari va yoshlarga oliy namuna maktabi vazifasini o'tamoqlari lozim. Ma'naviyat tarbiyachining yurish-turishida, so'zida, ufurib tursa, u milliy urf-odatlarimiz hamda ma'naviy qadriyatlarimizga hurmat ko'rsatsa va bunga o'z hayotida amal qilsa, ko'zlangan maqsadlarga erishish yanada samaraliroq bo'ladi.

2.2. Ma'naviy tarbiya vositalarining inson shaxsini takomillashtirishdagi o'rni

Insonni shaxs sifatida kamol topishida ma'naviy tarbiyaning o'rni haqida fikr yuritar ekanmiz, ma'naviy tarbiya o'z o'zidan paydo bo'lib qolmaydi, balki bunda turli usul va vositalardan samarali foydalanishimiz uning kuchi va ta'sirini yanada oshishiga va ko'zlangan maqsadimizga yetishishimizga asos bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqot ishimizning yuqoridagi boblarida ham ta'kidlanganidek ma'naviy tarbiyaning ilmiy-metodologik masalalari bilan falsafiy fanlar, jumladan, ma'naviyatshunoslik fanlari shug'ullansa, uning metodlari va vositalari bilan pedagogika fanlari shug'ullanadi. Demak pedagogika fanlariga murojaat qiladigan bo'lsak, tarbiyani samarali tashkil etishda muayyan vositalardan foydalaniladi. Vosita (arabcha so'z bo'lib, chora tadbir, usul, o'rta, o'rtadagi) – bu "biror maqsadga erishish yoki biror ishni amalga oshirish uchun dastak bo'lib xizmat qiladigan narsa, qurol", "biror narsani amalga oshirish uchun xizmat qiladigan, foydalaniladigan narsa, omil" dir³⁹.

V.A.Slasteninning tahriri ostida chop etilgan "Pedagogika" darsligida pedagogik jarayonda qo'llaniladigan vositaning, bir tomondan, faoliyatning turli ko'rinishlari, ikkinchi tomondan, pedagogik faoliyatda qo'llaniladigan moddiy va ma'naviy madaniyatga oid barcha predmetlar majmui ekanligi, ko'p holatlarda metodik usullar, hatto metodlarning o'zini ham ta'lim va tarbiya vositalari bilan bir deb qabul qilinishi aytib o'tiladi⁴⁰.

Pedagogik manbalarda kishilik faoliyatini ham tarbiya sifatida qabul qilish zarurligi e'tirof etilgan. Mashhur pedagog K.D.Ushinskiy o'qish va mehnatni shaxs ongi, his-tuyg'ulari va xulq-atvoriga ta'sir etuvchi vosita sifatida e'tirof etadi. Uning qayd etishicha, o'yin, o'quvchining ishi va o'qishidan tashqari uning hayoti – o'rtoqlari, tarbiyachilari (o'qituvchilari va ota-onasi)ga bo'lgan munosabatini ham vosita deb qabul qilish mumkin.

Mehnat shaxsni tarbiyalashning eng ta'sirchan vositasidir. Zero, mehnat

³⁹ O'zbek tilining izohli lug'ati. A – D / 5 jildli. Birinchi jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 468-bet.

⁴⁰ Педагогика / В.А.Сластенин, Н.Ф.Исаев, А.И.Мищенко, Е.М.Шихнов – Москва: Владос, 1997. – С. 297.

yordamida shaxsda ma'naviy-axloqiy va estetik his-tuyg'ular shakllantiriladi, bilim, ishonch, e'tiqod, g'oyalar hosil qilinadi, xarakter, iroda va boshqa sifatlar tarbiyalanadi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib "tarbiya vositalari" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: "Tarbiya vositalari – tarbiya jarayonining ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo'llaniladigan moddiy buyumlar, narsalar, ma'naviy omillar, faoliyat (o'yin, o'qish, mehnat, muloqot) hamda hissiy yondashuv ko'rinishi"⁴¹.

Oila va ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonni tashkil etishda quyidagi tarbiya vositalaridan keng foydalaniladi: davlat ramzlari, milliy qadriyatlarning namunalari, hayotiy misollar, oila yoki o'quvchilar jamoasi uchun qadrlı bo'lgan moddiy buyumlar; oilaviy yoki jamoaviy an'analar, shaxs ibrati, qahramonlik, insoniylik, mehr-oqibat, insoniy muhabbat, o'zaro oqibat, haqiqat uchun kurashish to'g'risida hikoya qiluvchi badiiy asarlar; o'quvchilarning estetik didini boyituvchi san'at namunalari; o'rinni aytilgan so'z (nutq), hissiy yondashuv, samimiy munosabat, yuksak ishonch, jamoa birligi, jamoa a'zolarining o'zaro yordami, ommaviy axborot vositalari tomonidan c'lon qilingan xabarlar, tarixiy voqelik, qahramonlik namunalari, vatanparvarlik ruhida qo'shiqlar, kinofilmlar, teatr tomoshalari va hokazolar⁴².

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki tarbiyaning vositalari xilma-xil va rang-barangdir. Ushbu ilmiy tadqiqot ishi davomida tarbiya vositalarning barchasi haqida to'liq to'xtalib o'tish imkonsiz hisoblansada, shaxs ma'naviyatini shakllantiruvchi asosiy vositalarning ayrimlari haqida fikr yuritishimiz joizdir.

Ushbu vositalardan biri ma'naviyat tarbiya o'chog'i bo'lmish oiladagi tarbiya hisoblanadi, chunki har bir inson dunyoga kelar ekan, undagi eng muhim jihatlari: ilk tasavvurlari hamda hayotiy qarashlari oila deb atalgan muqaddas maskanda paydo bo'ladi. Boladagi xislatlar, uning muomalasi va ilk dunyoqarashi ham aynan shu makonda qaror topadi. Bu tushunchalar inson qalbiga bobolara o'giti, ota ibrati va ona

⁴¹ Inoyatov U.I., Muslimov N.A. va boshqalar. Pedagogika (nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun darslik). Toshkent. 2016-yil. 81-bet.

⁴² Inoyatov U.I., Muslimov N.A. va boshqalar. Pedagogika (nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun darslik). Toshkent. 2016-yil. 81-bet.

mehri orqali singib boradi.

Ma'naviy komillik, milliy tarbiyaning bosh va betakror maskani ham bolani doimiy o'rab turgan ijtimoiy muhitning bir bo'lagi bo'gan oiladir. Bu haqda Abdurauf Fitrat "Rahbari najot" asarida shunday yozgan edi: «Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar ko'proq yaxshi va yomon ahvolni o'z uylaridan, ko'chadagi o'rtoqlaridan, maktabdagi o'quvchilardan qiladilar»⁴³.

Ma'rifatchilardan biri Rizouddin ibn Faxriddinning "Insonlarning dinu-dunyolarini tuzatmoq matlub bo'lsa, eng avval go'zal xulqqa ega bo'lmoq ila oilalarni tuzatingiz. Oilalar tuzalganidan so'ng din ham, dunyo ham tuzaladi"⁴⁴-degan gaplarida katta bir haqiqat ifodalangan.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov oilaning muqaddasligi haqida quyidagi fikrni ta'kidlaganlar: "Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng shof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila tiag'rida shakllanadi. Bolaning xarakteri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar - yaxshilik va ezgulik, oliyanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir. Shuning uchun ham aynan oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ulaming oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatları va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi"⁴⁵.

Dono xalqimiz uzoq asrlar davomida yaratgan oila ma'naviyati bilan bog'liq farzandlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash usul va vositalari, xalq pedagogikasi manbalarida o'z aksini topgan. Milliy tajribamiz shuni ko'rsatadiki, bola qalbida ezgi xislatlarni paydo qilish uchun avvalambor oila a'zolari bo'lgan ota-ona, aka-uka, opa-

⁴³ Абдурауф Фитрат. "Рахбарі најот". Боку. 1915-йил. 198-бет

⁴⁴ Ибн Фахруддин. Ризоуддин. Оила. - Т.: Мехнат, 1991

⁴⁵ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - 52-bet

singilisi hamda bobo-buvisiga nisbatan mehr-oqibat kabi qimmatli fazilatlarni tarbiyalash muhimligiga qat'iy amal qilingan. Bolalarning kattalarga hamda atrofdagilarga bo'lgan munosabati, mehr-oqibati, hurmati tarbiya tufayli shakllanadigan ezgi fazilat ekanligi uqtirladi.

Farzandga birinchi qadamdan oq, axloq, va odob o'rgatgan ota — ona uning kelgusi baxtiga mustahkam poydevor o'rnatgan bo'ladi. Ba'zan insonning kichik nuqsonlari uning soyasida qolib ketadi.

Farzand tarbiyasi shunchalik ma'suliyatlilik, bu ishda xatoga yo'l qo'yish oson, lekin bu xatoni tuzatish qiyin. Ba'zi ota - onalar farzand tarbiyasiga befarq qarab o'zining ish bilan band ekanligini ro'kach qiladi.

Bola 18 -20 yoshga to'lgach o'z qadr - qimmatini, izzatini va ma'naviyatini aqlan, axloqan his qiladi. qizlar or-nomus, iffati, qadr - qimmatini ancha to'g'ri tushunadi. Bu davrda yoshlar ma'naviy omillarga ko'proq beriladi.

Hayotiy tajriba shuni ko'rsatadiki, bozor munosabatlari faqat pul topish yo'lini izlashdan iborat emas. Kishilarda yuksak ma'naviyat ham bo'lishi kerak.

Hozirgi davrda oilada axloqiy tarbiyaga e'tibor berish zaruriyati yuzaga keldi. I.Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida - xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari" nomli asarida: "Biror jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay mustahkamlamay, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi"-deb ma'naviy omilning qanchalik muhim ekanligi haqida fikr bildirgan edi.

Oiladagi axloq, odob tarbiyasi o'z-o'zidan amalga oshib qoladigan jarayon emas. Eng muhimi — oiladagi ma'naviy muxitdir. U inoqlik, ahillik, totuvlik natijasida paydo bo'ladi

Ota-onalarning milliy -madaniy saviyasi kasb-hunari, milliy mansubligiga, diniy e'tiqodlari ham bolalarning axloqi, odobi, butun ichki dunyosi shakllanishiga ta'sir etadi.

Bola ota-onasidan mehr ko'rmasa, bag'ritosh bo'ladi, ortiqcha erkalatilsa, taltayib ketadi.

Oiladagi tarbiyada yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini tarbiyalashga alohida

e'tibor berish kerak. Muayyan millatga mansublikni ham xis qilish lozim. Uning tarixi, tili, qadriyatlarini bilish inson ma'naviy kamol topishida nihoyatda muhim.

Shunday qilib, oila — jamiyatning asosiy bo'g'ini. Oilada singdirilgan tarbiya, Vatanga muhabbat, ozodlik, mustaqillik haqidagi ilk tushunchalar bola qalbining to'ridan joy egallaydi. Mustahkam, tinch va osuda, farovon hamda sog'lom oila bo'lsa, jamiyat ham barqaror bo'ladi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Oilaning jamiyatdagi o'rni, tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab yetmasdan, oilaga millat manfaati nuqtai nazaridan yondoshmasdan turib, xalqchil mafkura yarata olmaymiz"⁴⁶.

Umuman olganda ma'naviy tarbiyaning asosiy vositasi bo'lmish oila tarbiyasi, tarbiyaning boshqa vositalaridan ham unumli foydalanishda eng muhim omil hisoblanib, insonni shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy tarbiyaning vositalari haqida fikr yuritir ekanmiz bunda eng ta'sirli va kuchli tarbiya vositasi bo'lgan adabiyot, san'atning barcha turlari, o'zbek xalqining asrlar osha ajdodlardan avlodlarga o'tib, sayqallanib kelayotgan urf-odat, an'analarini ham esga olib, ular haqida ham alohida to'xtalish adolatdan bo'ladi.

Ma'naviy g'oyasi yuksak, badiiy, jozibali adabiyot va san'at asarlari kishilar qalbiga tezroq yo'l topish, estetik hissiyotiga kuchli ta'sir qilish, hayotiy voqea-hodisalarni chuqur mushohada etishga da'vat etish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu bois adabiyot va san'at asarlarining kuchidan kishilarni yuksak ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash maqsadida imkon boricha kengroq tarzda hamda tizimli ravishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek. "Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir"⁴⁷.

Yosh avlodni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda buyuk mutafakkirlarimiz Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib, Lutfiy, Alisher Navoiy, Jomiy, Boborahim Mashrab, Furqat, Muqimiy, Abdulla Qodiriy, Firat, Abdulhamid

⁴⁶ Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi — xalq e'tikodini va buyuk kelayotgan insonchilikni: "FIDOKOR" gazetasini muhbirni savollariга javoblar. — T.: "Uzbekiston". 2000. 23-bet.

⁴⁷ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. — 136-bet.

Cho'lpon, Usmon Nosir va boshqa shoir va yozuvchilarimizning asarlaridagi hikmatli so'zlar, g'oya va fikrlardan foydalanishimiz ularni har tomonlama ruhiy barkamollikga yetaklovchi muhim vosita bo'li xizmat qiladi. Ushbu shoir va yozuvchilarimiz asarlarida halollik va poklik, to'g'rilik, birovning haqiga ko'z olaytirmaslik, insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, diyonatlilik, iymonlilik, halol luqma bilan kun ko'rish, ota-onani hurmat qilish kabi inson uchun zarur ma'naviy xislatlar yuqori badiiy saviyada bayon etilgan.

Yangi davrda ijod qilgan Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, Said Ahmad, O'tkir Hoshimov, Tohir Malik kabi yozuvchilarimiz; Erkin Vohidov, Oydin Hojiev, Omon Matjon, Rauf Parfi, Abdulla Oripov kabi shoirlarimizning ma'naviy tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlaridan keng foydalanish, badiiy asarlar, ulardagi qahramonlarning fe'l-atvori, axloqiy, ma'naviy olami to'g'risida tahlil va muhokama o'tkazish ham yoshlar tarbiyasiga katta yordam beradi.

Ma'naviy tarbiyada yana bir vosita borki, u ham to'g'ridan to'g'ri inson ruhiyatiga ta'sir etishda kuchli qurol bo'lib xizmat qiladi. Bu vosita teatr san'ati hisoblanib yoshlar tarbiyasida uning kuchidan foydalanish ham faqat ijobiy natijalar olib keladi. Ammo bugungi kunda teatr san'atiga yoshlarimizning qiziqishlari sust bo'lib, uning ta'sir kuchidan samarali foydalana olmayotganligi naqadar achinarli holat hisoblanadi. Teatr san'atining boshqa san'at turlaridan farqi shundaki bu san'atda ham so'z, ham harakat, ham musiqa orqali kishilar ongiga jozibali ta'sir etish imkoniyati mavjud.

Teatr san'ati inson qalbiga tez yetib boradigan san'at turlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham yoshlarimizda bu san'atdan bahramand bo'lish ma'naviyatini mustahkamlab borishimiz zarur.

Ma'naviy tarbiya vositalaridan san'atning turlari haqida gap ketganda hozirgi kunda eng ommaviy bo'lgan estrada san'atini ham aytib o'tish nihoyatda o'rindir. Bu san'at turini yoshlar orasida tez tarqalishi, uning iste'molchisi ko'proq yoshlar ekanligini hisobga olsak estradaning bu imkoniyatlardan unumli foydalanish maqsadga muvofiq. Ammo hozirgi kunda estrada san'atidan boylik orttirish, tez mashhurlikka erishish va boshqa maqsadlarda foydalanish holatlari ko'p

kuzatilmoqda. Bu esa haqiqiy milliy ruh, jozibali musiqa, so'z san'ati orqali yoshlar ongiga ta'sir etishdek muhim vositadan uzoqlashib ketayotganligimizdan darak beradi. Bu jarayon yoshlar ma'naviyatini rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Haqiqatan ham milliy estrada san'atimizda milliy ruh bo'lsagina yoshlarimizni ma'naviy barkamol insonlar qilib tarbiyalashimiz mumkin bo'ladi. Milliy ruhda asarlarni kishilar qalbiga kirib borishida ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan foydalanish ham ijobiy natijalarga olib keladi.

Inson shaxsini shakllantirishda muhim hisoblangan ma'naviy tarbiya vositalaridan yana biri bu milliy urf-odat va an'analarimiz hisoblanadi. O'zbek xalqining urf-odat va an'analari ko'p asrlar tarixiga ega bo'lib, ular yoshlar qalbidagi mehr-oqibat, bir-biriga yordam, mehmondo'stlik, jamoaviylik, do'stlik, tozalik, halollik, rostgo'ylik, saxiylik, shukronalik, sabrlik, mardlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va boshqa muhim ma'naviy-axloqiy sifatlar shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ana shunday odatlarimizdan biri, odamiylik, do'st-birodarlik, bir-biriga ixtiyoriy yordam va hamkorlikning yorqin namunasi bo'lgan hashar hozirgi kungacha yetib kelgan go'zal odatlarimizdan biridir. Hashar o'zbeklar uchun jamoat yoki shaxs ishiga ixtiyoriy yordam berish, ko'pchilikning bir maqsadda, bir yoqadan bosh chiqarib, ko'pgina ishlarni birgalikda bajarishda qo'llaniladi. Bu haqida I.A.Karimov shunday deydi: "Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma'naviy hayotimizning uzviy qismiga aylangan hashar odati istiqbol davrida yangicha ma'no-mazmunga ega bo'lib, umummilliy an'ana tusini olgani barchamizni mamnun etadi. Har yili Navro'z va Mustaqillik bayramlari arafasida o'tkaziladigan umumxalq hasharlari buning tasdiqidir. Bu esa, hech shubhasiz jamiyat tafakkurining yangilanishiga kuchli ta'sir qilmoqda"⁴⁸.

Xalqimizda salomlashish, hol-ahvol so'rash kabi, kishining tarbiyasi va madaniyatini aks ettiruvchi odat ham mavjud bo'lib, u orqali kishilar o'rtasida

⁴⁸ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.-96-bet

yaqinlik, mehr oqibat, insonni ardoqlash kabi sifatlar ulug'lanadi. Salomlashish tarbiyasi borasida qator hadislar, o'gitlar, pandnomalar mavjud. «Gar saloming bo'lmaganida ikki yamlab bir yutardim», - deb yovuz kuchlar ertak va doston qahramonlariga yordam bergan, manmanlik bilan salom berishni unutganlar esa jazoga giriftor bo'lgan. «Odobingni salomingdan bilurlar» maqolida salom insonning fe'l-atvori, odobining ko'zgusi ekanligi ta'kidlangan. «Alpomish» dostonida chiltonlar Alpomishga shunday maslahat berishadi:

Xudoyim beribdi insonga kalom,

Bemavrid ish qilib topmagin alam,

Yaxshi ham, yomon ham shundan bilinar,

Kim bo'lsa oldidan o'tma besalom.

Birgina salomlashish odobi ham bir qarshda arziyas tuyulsada ma'naviy komillikning belgisi hisoblanib, kishining yuksak madaniyatidan darak beradi.

Xalqimiz tarbiyaning turli metod va shakllarini amalga oshirishda xilma-xil tarbiya vositalaridan foydalanganlar. Xususan, xalq o'yinlari va o'yinchoqlar, xalq og'zaki ijodi, tabiat va inson munosabatlari, xalq tabobati xususiyatlari, turli to'y-tomosha marosimlari, sayil, yig'in, bazz, bayramlarda kattalar va bolalarning birgalikdagi ishtiroki, gap-gashtak va ulfatchilik, choyxona gurungi, aza ma'rakalari, uzoq safarga va ovga chiqish va hokazo⁴⁹.

Ular ichida bayramlarga to'xtaladigan bo'lsak, bahoriy tengkunlikda «Navro'z» bayrami (21-22-mart), kuzgi tengkunlikda «Mehrjon» bayrami (22-sentyabr), qishning eng uzun tunida «Sada»(olov) bayrami (22-dekabr), yozning eng uzun kunida «Angom hayit» (Suv sayli) bayrami (22-iyun) o'tkazilgan. Bahor faslida tabiat uyg'onib, dalalarda yangi mehnat mavsumi boshlanishiga bag'ishlangan «Navro'z» bayrami nishonlanib bu bayramda turli sayillar, tomoshalar, o'yinlar, musobaqalar, xalq ijodi ko'riklari o'tkazilgan, milliy taomlar tayyorlangan. Navro'z bayrami hozirgi kunga kelib, o'z sehr va tarovatini yo'qotmadi, balki xalqimiz orziqib kutadigan bayramga aylanib hozirga qadar nishonlanib kelinmoqda.

Diniy bayramlarimiz bo'lgan Ramazon va Qurbon hayiti bayramlari va ular

⁴⁹ Муташинова М.И. «Халқ педагогикаси», «Фан ва технология» нашриёти. Тошкент. 2015-йил. 84-бет

bilan bog'liq turli odat va marosimlar ham insonni shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rin tutib, kuchli ma'naviy tarbiya vositasi bo'lib kelmoqda. Jumladan ro'za tutish insonda sabr, yomon odatlardan o'zini tiyish, halollik, poklik kabi tushunchalarni shakllantirsa, Ramazon va Qurbon hayiti kunlaridagi keksalar, ijtimoiy himoyaga muhtojlar holidan xabar olish, araz-ginalarni unutish, mehr oqibat, xayr-saxovat kabi xayrli ishlarni amalga oshirish inson kamolotida muhim o'rin tutadigan axloqiy sifatlar shakllanishiga asos bo'ladi.

O'yinlar ham tarbiyaning muhim vositalaridan hisoblangan.

O'yinlarning mazmuni va shakli tabiiy sharoit, mehnat faoliyati, ijtimoiy axloqiy munosabatlardan kelib chiqqan.

M.Murodov o'zbek xalqining boy o'yin merosini quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganadi⁵⁰:

1- Tabiiy - mavsumiy o'yinlar.

2. Hududiy va turli joylarga xos o'yinlar.

3. Turli yoshlarga xos o'yinlar.

4. Turli jinsdagilar o'yinlari.

5. Mashg'ulot, mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar.

6. Voqeband o'yinlar.

7. Harakatli o'yinlar.

8. Turli vositali o'yinlar.

9. Hayvonlar ishtirokida o'tadigan o'yinlar.

«Qog'irchoq», «Quvlashmachoq», «Besh tosh», «Oq terakmi- ko'k terak», «Yong'oq o'yini», «Chavgon», «Qorbo'ron», «Varrak», «Arqon», «Tosh o'yini», «Chillak», «Tez ayt», «Topishmoq top», «Bekinmachoq» kabi o'yinlar o'ynalgan bo'lib, o'yinlarning ham o'z qonun-qoidalari bo'lgan. Agar o'yinlarda kimdir g'irromlik qilsa «o'yin buzuvchi» deb o'yindan chetlashtirgan. Umuman olganda bu kabi o'yinlar ham bolalarda tezkorlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, chaqqonlik, jamoaviylik kabi bir qancha axloqiy sifat va xususiyatlarni tarkib topishida muhim omil sanalgan.

⁵⁰ Murodov. Etnomadaniyat. T.: Adolat. 2003.76-78-b

O'smir yoshdagi bolalarning choyxona gurungi, gap-gashtklarining ham o'ziga yarasha qoidasi bor. Bu choyxonaga navbat bilan taklif qilish, o'rtoqlari bilan samimiy muomalada bo'lish, so'zlovchi gapini bo'lmaslik, navbat bilan gapirish, navbat bilan choy quyish, choyni o'ng qol bilan uzatish, noz-ne'matlamini teng baham ko'rish, dasturxonga undash va hokazolardir. O'smirlarning yaxshi fazilatlarini ham, yomon xulqi ham bu yig'ilarda namoyon bo'ladi. Kattalarning o'git-nasihatlarini olib, ulfatchilikda qatnashgan o'smirlar odob qoidalarini yaxshi o'zlashtirib oladilar⁵¹.

Xalq pedagogikasidagi yana bir tarbiya vositalaridan biri bu mehmondorchilik hisoblanadi. To'y-tomosh, yig'in, marosim, gap-gashtklar natijasida dasturxon bezash, saxiylik, ochiq ko'ngillilik, mehr-oqibat, muomala madaniyati kabi yuksak ma'naviy sifatlar shakllanishi ham inson kamolotida muhim o'rinni tutadi.

Xonadon mezburlari mehmonning ko'nglini olish, xursand qilish uchun eng yaxshi idish-tovoqlarni ishlatadilar, taniqli taomlar pishiradilar. Mehmondo'stlikning o'ziga xos qoidalar bolalarga pand-nasihat, maslahatlar berish orqali, shaxsiy ibrat-o'rnatib ko'rsatib yoshligidan o'rgatib kelinadi. Shu tariqa xalqimiz yuqoridagi kabi tarbiya metodlari, shakllari va vositalari orqali yosh avlodni axloqiy tarbiyalab, insoniy fazilatlariga o'rgatganlar.

Inson shaxsini shakllantirishda mahalla, ta'lim tizimi va jamoat tashkilotlarining o'rni ham beqiyosdir.

Mahallaning milliy-ma'naviy tarbiyadagi o'rni haqida avlodlarimizdan bizgacha yetib kelgan "bir bolaga yetti mahalla ham ona, ham ota" degan naql bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganiga guvoh bo'lamiz. Tarbiyaviy jarayonlarda mahallaning qonunlarda va turli me'yoriy hujjatlarda yozilmagan qonunlari borki, unga barcha itoat qiladi va unga hurmat bilan qaraydi. Xuddi mana shu omillar yoshlarimizni hamjihatlikda bo'lishi, axloq va odobda, o'z hatti-harakatlarida mahalla jamoasi oldida o'rnatib bo'lishga undaydi. O'z-o'zini boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlar va an'analarga tayangan holda, ulkan ma'naviy tarbiya vazifasini bajaradi. Keksalarning pandu nasihati, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi orqali odamlar ongiga

⁵¹ Муталипова М.И. "Халқ педагогикаси". "Фан ва технология" нашриёти. Тошкент. 2015-йил. 84-бет

ezgulik g'oyalari singdirib boriladi.

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda ta'lim tizimining o'rni ham hal qiluvchi omillardan sanaladi. Chunki ta'lim tashkilotlari bo'lmish bog'cha, maktab, kasb-hunar maktabi, texnikum, oliy ta'lim muassasalarida ong va tafakkurning rivojlanish jarayoni kechadi va ular o'z navbatida yoshlarga bilim egallash bilan birga, ularda vatanga muhabbat, insonparvarlik va umuminsoniylik kabi qadriyatlarni ham shakllantirishda asosiy kuch bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham ta'lim bilan tarbiya uyg'un holatda yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishning muhim omili sifatida har doim muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan.

Ta'lim tizimida ta'lim va tarbiyaning uzviy ravishda olib borilishi nafaqat mamlakatning intellektual jihatdan yuksalishiga, shuningdek ma'naviy barkamol

bo'lishiga ham zamin yaratadi. Shu ma'noda ham Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov bu masalaga e'tibor berib quyidagilarni aytadi: "Shuni unutmaslik kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq"⁵².

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan ham anglash qiyin emaski, ma'naviy tarbiyaning usul va vositalari bisyor bo'lib, faqatgina ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali biz millat va jamiyat koriga yaraydigan, yetuk va barkamol insonlarni voyaga yetkazishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida quyidagilarni aytib o'tish lozim. Ma'naviy jarayonlardagi globallashuv hodisasiga hech qanday tazyiq, ta'qiq bilan kurashib bo'lmaydi. Unga faqat yoshlarni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash bilan javob qaytarish mumkin. Bu jarayonda ma'naviy tarbiyaning barcha usullari va vositalaridan samarali foydalanib, yoshlarni har qanday g'oyaviy ta'sirlarga qarshi tura oladigan millatparvar, vatanparvar qilib tarbiyalash zarur. Biz faqatgina kuchli ma'naviy tarbiya omili tufayli bugungi globallashuv jarayonida uyimizni, hayotimizni toza havo bilan ta'minlab, ayni paytda, "dovullar"dan saqlashimiz mumkin ekanligini anglashimiz lozim. Globallashuv jarayonlarining avj olishi

⁵² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.-61-bet

bugungi kunda nafaqat turli millatlar va xalqlarning ma'naviyatlarining qoshshoqlashuviga katta ta'sir o'tkazmoqda, shuning bilan birga kam taraqqiy qilgan va endi taraqqiyot yo'liga kirayotgan mamlakatlar hamda ularda yashayotgan millatlar va xalqlarni yuksak taraqqiy qilgan mamlakatlarga ham iqtisodiy, siyosiy va g'oyaviy jihatdan ham qaram qilishga olib kelmoqda. Bunday vaziyatda biz bebaho boyligimiz bo'lgan milliy qadryatlarimiz, boy tariximiz, ajdodlarimizning boy ma'naviy tajribasini yoshlar ongiga singdirish orqali har-xil xurujlarga qarshi turishda ulardan kuchli ma'naviy qurol sifatida foydalanishimiz zarur.

III BOB. POSTINDUSTRIAL JAMIYATDA SHAXS SHAKLLANISHIDA MA'NAVİY TARBIYANING MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI

3.1. Yangi O'zbekistonda ma'naviy-axloqiy tarbiya tendensiyalari tahlili

Ma'naviy tarbiya muammosi har qanday jamiyat uchun dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Xususan, bugungi kunda yangi mazmun va mohiyat kasb etib borayotgan Yangi O'zbekiston fenomenida ham yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiya qilish eng dolzarb ijtimoiy muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Buning albatta o'z sabablari, omillari hamda rivojlanish yo'nalishlari mavjud. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, aholi barcha qatlamlarining axloqiy tarbiyasiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda⁵³." Mazkur ijtimoiy zaruriyat esa o'z navbatida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning bugungi kun uchun xos va mos bo'lgan zamonaviy tendensiyalarini shakllanishi, amaliyotga tadbiiq etilishi uchun ijtimoiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonlari insonning shaxs sifatida shakllanishini ta'minlab beruvchi davomli jarayon bo'lib, bu insondagi ezgu fazilatlarini ko'paytirish va yovuz illatlardan qutulishga xizmat qiladi. Ma'lumki, fazilatlar nafaqat insonning, balki jamiyatning ma'naviy boyligi hisoblanadi. Jamiyatda fazilatli kishilarning ko'payishi ma'naviy va moddiy taraqqiyotga ta'sir ko'rsatadi, ijtimoiy sohaning rivojlanishini jadallashtiradi. E.Yusupovning so'zlariga qaraganda: "Axloq borasida tubanlashish oson, lekin yuksalish qiyin, axloqiy bo'hronga qarshi kurashishdan ko'ra uning oldini olish oson. Qayta oyoqqa turish qiyinligini anglagan kishi yiqilmaslikka harakat qiladi"⁵⁴. Shundan kelib chiqib aytyshimiz mumkinki, Yangi O'zbekistonda ham ma'naviy va axloqiy jihatdan yangilanish, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari g'oyasini ro'yobga chiqarish dolzarb ahamiyat kasb

⁵³ Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – B. 261.
⁵⁴ Комислов Н. Тасаавуф. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – Б. 147.

etadi. O'z navbatida, dastlab bu jarayon zamonaviy ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonlarini axloqiy zaruriyat ekanligini anglash bilan boshlanishi lozim.

Yangi O'zbekistondagi ma'naviy tarbiya tendensiyalari, birinchi navbatda, mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan davlat siyosati, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topib bormoqda. So'nggi yillarda mazkur yo'nalishda qator hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ularning mazmuni tarbiya sohasida davlatimizning asosiy siyosiy yo'nalishlarini, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mohiyatini belgilab beradi. Shundan normativ hujjatlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustda qabul qilingan "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-sonli Qarori hisoblanadi. Mazkur Qarorda yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol qilib tarbiylashda quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi:

- yuksak ma'naviyatli, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo'lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash;
- yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash;
- pedagog xodimlarning qadr-qimmatini va nufuzini oshirish, ularning moddiy-ma'naviy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;
- yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o'rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish;
- yoshlar jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish;
- o'quvchi-yoshlarni ijtimoiy muhofaza qilish, ijtimoiy ehtiyojmand oilalar farzandlarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash⁵⁵.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda asosiy potensial hisoblanuvchi yoshlarning ma'naviy barkamolligini ta'minlash davlatimiz va jamiyatimiz uchun eng asosiy,

⁵⁵O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustda qabul qilingan "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-sonli Qarori – <https://lex.uz/docs/-3864155>

pirovard vazifalardan hisoblanganligi sababli 2019-yilda uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi ishlab chiqilib, tegishli hukumat qarori qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qarori bilan qabul qilingan Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasida ta'lim va tarbiya jarayonlarining o'zaro yaxlitligi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmazligi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilganligiga odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib berishi ta'kidlangan⁵⁶. Albatta ma'naviy tarbiya uzluksiz jarayon bo'lib, uning qanchalik to'g'ri tashkillashtirilganligi jamiyatning kelajagiga bevosita ta'sir etadi. Uzluksiz ma'naviy tarbiya insonning butun umrini qamrab oladi, shaxsning shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu tufayli mazkur jarayonni puxta tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining asosiy maqsadi - yosh avlodga mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarini yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirish hisoblanib, mazkur maqsadga quyidagi vazifalarni amalga oshirib erishilishi belgilab qo'yilgan:

- ma'naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;
- tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib voyaga yetgunga qadar davom etadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;
- bola tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish;
- tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish;

⁵⁶O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qarori – <https://lex.uz/docs/-4676839>

– ma'naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta'lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish;

– ma'naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi⁵⁷.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoni quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

birinchi bosqich — bolalar oilalari bag'rida bo'ladigan, tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr. Mazkur davrda go'dak borliq bilan ilk marotaba munosabatga kirishadi, uning dunyo haqida ilk qarashlari, tasavvurlari shakllana boshlaydi. Ta'bir joiz bo'lsa, kelgusida bolaning ma'naviy qiyofasi qanday bo'lishi bevosita mazkur jarayonning qanchalik to'g'ri shakllantirilganligiga bog'liq;

ikkinchi bosqich — maktabgacha ta'lim bosqichi bo'lib, taxminan 3-7 yoshgacha bo'lgan muddatni qamrab oladi. Bu bosqichda bola oila a'zolaridan tashqari boshqa insonlar, tengdoshlari bilan muloqot qiladi, unda axloqiy fazilatlar shakllanadi, nima yaxshi va nima yomon degan savollarga javob izlay boshlaydi;

uchinchi bosqich — bolaning maktabda tahsil olish davrini qamrab oladi. Mazkur davr 7 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi. Maktab ta'limi – yoshlarning ma'naviy kamolotiga erishishida, axloqiy qiyofasi shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega;

to'rtinchi bosqich — maktab ta'limidan keyingi davr. Insonning mavjud ijtimoiy muammolarga axloqiy munosabati yanada mustahkamlanadi, shaxs sifatida kamol topib, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish uchun kurashadi. Bu davrda inson ham tarbiyalanuvchi ham boshqalarni tarbiyalovchi rolini bajaradi, jamiyat ma'naviy taraqqiyotiga hissa qo'shadi.

O'z navbatida, Yangi O'zbekistondagi ma'naviy tarbiya jarayonlarini tahlil etar ekanmiz, yuqorida ta'kidlaganimizdek, mazkur tendensiyalarning ijtimoiy zaruriyat ekanligini ta'kidlash lozim. Mamlakatimizdagi zamonaviy ma'naviy tarbiya tendensiyalari Yangi O'zbekiston strategiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, avvalo,

⁵⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qarori – <https://lex.uz/docs/4676839>

xalqimizning ulkan madaniy merosi, intellektual salohiyati tarbiya jarayonlari uchun asos sifatida namoyon bo'ladi. Jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilayotgan mazkur omil, bebaho boylik umumbashariy taraqqiyotga munosib hissa bo'lib qo'shilgan.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda ma'rifiy islohotlar hamda barkamol inson tarbiyasida asosiy tendensiyalar sifatida quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin:

– **mavjud uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslarini kuchaytirish.** Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonlarining bugungi kudagi asosiy xususiyati uning zamon bilan hamnafas, hamqadam bo'lishida namoyon bo'ladi. Qaysi mamlakat yoki jamiyatda ma'naviy tarbiya masalasi zamona talablari bilan uyg'unlashitirilmas, mavjud qarama-qarshiliklar bartaraf etilmas ekan, bunday jamiyatda shaxslarning ma'naviy qiyofasida bo'shliq vujudga kelishi shubhasiz. O'tgan asr boshida jadid ma'rifatparvari Abdurauf Fitrat o'zining "Oila" risolasida farzand tarbiyasining ahamiyatiga e'tibor qaratib, mazkur ikki so'zning birgalikda aytilishi osonligi, lekin hayotga aynan farzand tarbiyasi millatning kelajagini belgilab berishini ta'kidlagan edi⁵⁸. Shundan anglashimiz mumkinki, bugungi kunda Yangi O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimida ham, undan tashqarida ham ma'naviy tarbiyaning asoslarini mustahkamlash talab etiladi;

– **ma'naviy-axloqiy tarbiya, mazkur sohada amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yagona tizimini yaratish.** Bunda jamiyatimizda mavjud barcha davlat va nodavlat tuzilmalarning ishtirokini ta'minlash. Agarda ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida har bir davlat tashkiloti, har bir nodavlat muassasa va fuqarolik jamiyatning boshqa institutlari alohida yondashuv asosida faoliyat olib borar ekan, bunday faoliyatning samarasiz bo'lishi tabiiy holdi. Shu tufayli ham bugungi kunda ma'naviy-tarbiyaviy faoliyatda tegishli davlat va nodavlat tashkilotlarining nuqtai nazarlarini inobatga olgan holda umumiy yondashuvni, "oltin oraliq"ni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda;

– **ma'naviy tarbiya jarayoniga "mahallabay" ishlash mexanizmlarini joriy etish,** har bir mahallaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tarbiyaning usul

⁵⁸ Abdurauf Fitrat. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. Ikkinchi nashr. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – B. 52.

va vositalaridan foydalanish. Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonlarini tashkil etishda mahallabay ishlash tamoyilining joriy etilishi Yangi O'zbekistondagi ma'naviy o'zgarishlarning shaklan va mazmunan transformatsiyasining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. "Mahallabay ishlash tizimi murakkab jarayon bo'lishiga qaramasdan, unda har bir insonning dardini tinglash, uning qismatini tubdan o'zgartirish, jamiyat taraqqiyotini iqtisodiy o'sishlar bilangina emas, balki aholining o'z hayotidan mamnunligi bilan o'lchash kabi mezonlar mavjud.⁵⁹";

- **"Bir ziyoli – bir mahallaga ma'naviy homiy"** tamoyili asosida ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar hamda xalq orasida obro'ga ega bo'lgan ziyolilarni mahallalardagi ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonlariga jalb etish. Ziyolilar – jamiyatning ma'naviy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy qatlam hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, ziyolilar – jamiyatning vijdoni hisoblanadi. Ularning potensialidan jamiyatni ma'naviy jihatdan yangilash, ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonlarini takomillashtirishda foydalanish Yangi O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyotiga katta tas'ir ko'rsatadi;

- **ma'naviy tarbiyaning milliy va tarixiy uzluqliligiga erishish**, avlodlar o'rtasidagi vorisiylikni ta'minlash maqsadida yoshi ulug' otaxon va kayvoni onaxonlarni yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasi jarayonida faol ishtirokini ta'minlash. Jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti avlodlararo bog'liqlik, ma'naviy merosning uzviy tarzda avloddan avlodga o'tib borishiga bog'liq. Bunda Yoshi ulug'lar, keksa avlodni tarbiya jarayoniga jalb etish ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tarixiy ildizlarini mustahkamlashga xizmat qiladi;

- **mahalla, ta'lim tizimi, nuroniy, xotin-qizlar, yoshlar hamda boshqa davlat va nodavlat tashkilotlarning vazifalari aniq belgilab qo'yilgan "ma'naviy-axloqiy tarbiya dasturi"ni amalga oshirish**. Mazkur "ma'naviy-axloqiy tarbiya dasturi"da jamiyatning barcha a'zolari, davlat va nodavlat tashkilotlarning ishtiroki to'liq ta'minlanishi, ularning vazifalari aniq belgilab qo'yilishi talab etiladi. "Ma'naviy-axloqiy tarbiya dasturi" shunga dastur sifatida qolib ketmasligi uchun uning har bir a'zosining faol bo'lishi, o'z vazifalarini vijdonan va sidqidildan

⁵⁹ <https://xx.uz/uz/post/mahallabay-ishlash-tizimining-mohiyati-nimada-uning-amaliy-samaralari-qanday-vazir-shu-bilan-bogliq-dolzarb-savollarga-javab-qaytardi>

bajarishi talab etiladi;

- **ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tarixiy asoslarini keng jamoatchilik, xususan, yoshlar orasida keng targ'ib qilish, ajdodlarimizning boy tarixiy merosidan foydalanish imkoniyatini yaratish**. Ma'naviy tarbiyaning tarixiy asoslari – uning millatning ruhi bilan bog'liqligiga olib keladi. Inson o'zining ijtimoiy-madaniy rivojlanishi jarayonida ajdodlarning milliy qadriyatlarini ijodiy o'zlashtiruvchidir. Ana shu insoniy burchlarining har bir shaxs tomonidan mukammal bajarilishi ijtimoiy taraqqiyotning boy, rangba-rang madaniy oqimlarini hosil qiladi, saqlab turadi. Shu nuqtai nazardan har bir inson o'zida tarixiy, ijtimoiy, madaniy-milliy ko'rsatkichlarni mujassamlashtiruvchi tarbiya mahsulidir;

- **ma'naviy tarbiya jarayonida Islom dinining insonparvarlik mohiyatini, ezgu g'oyalarini to'g'ri tushuntirib berish**. "Bugungi O'zbekiston zamini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi⁶⁰". Shu tufayli ham xalqimizning mana shunday boy tarixiy, ilmiy, ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish, Islom dinining insonparvarlik mohiyatini tadqiq etish va targ'ib qilishni ma'naviy tarbiyaning zaruriy shartlaridan biri sifatida talqin etish lozim..

Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoni ta'lim-tarbiya jarayonlari, oila instituti bilan bevosita bog'liq. Yangi O'zbekistonning huquqiy islohotlarining pirovard natijasi hamda huquqiy asosi bo'lgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ham yoshlarni barkamol etib tarbiyalash masalasiga alohida urg'u berib o'tildi⁶¹. Xususan, mazkur masala Yangi Konstitutsiyamizning 78-moddasida quyidagi shaklda belgilab qo'yildi: "Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir.

Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini

⁶⁰ Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – B. 32.
⁶¹ <https://lex.uz/docs/-6449033>

shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.⁶²

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda davlat va jamiyatning bolalarda va yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirishni rag'batlantirish ko'rsatib o'tildi. Mazkur yangi konstitutsiyaviy norma orqali davlatning yoshlarni ma'naviy tarbiyalashdagi asosiy vazifalari belgilab qo'yildi. Chunki yoshlar va bolalar jamiyatning eng faol qismi bo'lish bilan bir qatorda, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida faol ishtirok etishadi. O'z navbatida, shaxs sifatida shakllanib kelayotgan yoshlarning ongini salbiy ta'sir ko'rsatuvchi turli zararli g'oya va mafkuralar, yot g'oyalar va boshqa ta'sirlardan saqlash maqsadida ularda "mafkuraviy immunitet"ni shakllantirish, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ta'sirini kuchaytirish zaruriyati bugungi kunga kelib yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, yosh avlod tarbiyasi – davlat va jamiyatning oldida turgan eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta'biri bilan aytganda, "Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. "Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi", deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi"⁶³.

Konstitutsiyamizga kiritilgan o'zgarishlar ma'naviy tarbiya jarayonining ham asosiy vazifalarini belgilab beradi. Unga ko'ra, ma'naviy tarbiya jarayoni yoshlarda quyidagi tuyg'ularni shakllantirishga yo'naltirilishi lozim:

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- mamlakatimizga va xalqimizning boy madaniy merosiga nisbatan faxr tuyg'usi;
- vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat.

Axloq va odob me'yorlari ijtimoiy munosabatlar, ta'lim-tarbiya asosida

⁶² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - https://rueningkonstitutsiyam.uz/konstitutsiya_uz.pdf

⁶³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. 1 iyul, 2017 y.

shakllanadi. Shu sababli ham insonda tabiiylikka nisbatan ijtimoiylik, tarbiyalanganlik ta'siri kuchlidir. Ta'lim-tarbiya, ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi insonlarning xatti-harakatlarini, ular o'rtasidagi munosabatlarni ma'naviyat bilan bog'lanmagan tabiiy ehtiyojlar va imkoniyatlar chegarasidan tobora uzoqlashtirib boradi. Shu bois, zamonaviy ma'naviy-axloqiy tarbiya asosan quyidagi vazifalarni bajaradi:

- insonlarning yuksak axloqiy g'oyalarga sodiqligini hamda sha'n va qadr-qimmatini saqlashni oliy axloqiy xislatlar, deb tushunishini ta'minlash;

- axloqan pok, ma'nau boy, vijdonli, mustaqil fikrga ega bo'lgan insonlarni yetishtirish;

- yuksak axloqiy madaniyat sohibi, milliy iftixor va milliy g'ururni namoyon etish tuyg'ularini mustahkamlash.

Jamiyat rivojini insonning ma'naviy kamoloti va jamiyat a'zolarining axloqiy tarbiya darajasi bilan bog'lashga intilish har qanday tarixiy davrda o'z izini qoldirgan. Ma'lumki, ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda diniy e'tiqodlar muayyan davr va sharoitlarda muhim omil sifatida xizmat qilgan. Masalan, Islom dinida jamiyat hayotining asosiy axloqiy va huquqiy tamoyillari Allohning irodasi, jannatdagi rohatlar va do'zah azobi bilan bog'lanib, inson ongiga va imon-e'tiqodiga singdirilgan. Bu esa dinning jamiyatda ma'naviy muhitni mustahkamlashdagi katta rolini yaqqol ko'rsatadi. Mazkur holat bugungi zamonaviy ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoniga ham ta'sir etmay qolmaydi. Shu tufayli ham ma'naviy tarbiyaning diniy asoslariga ham e'tibor qaratish lozim.

Har bir millatda, mamlakatda davom etayotgan tarbiyaviy jarayon umuminsoniy tarbiya tizimining tarkibiy qismidir. Demak, har bir davlatda olib borilayotgan siyosat kabi, tarbiya siyosati shu umumbashariy ehtiyojlardan kelib chiqib muvofiqlashtirilmog'i kerak. Chunki insoniyat sivilizatsiyasi taqdiri barcha xalqlarga bir xil bog'liq va qimmatlidir.

Ijtimoiy borliqda yangi g'oyani, maqsadni anglash, unga asoslanish uchun oddiy istak kifoya qilmaydi, balki jamiyatning har bir a'zosa muayyan darajadagi ma'naviy saviya bo'lishi ham talab etiladi. Bu saviyani shakllantirish aniq tarbiyaviy,

ma'rifiy ishlarning maqsadi kishilarni mavjud sharoitlar va vaziyatga moslashtirish bilan emas, balki istiqbol uchun kurashga, faollikka safarbar etish zarurdir. Aynan shunday holatda har qanday ma'naviy tarbiya usulidan ko'zlangan maqsad ko'larni jihatidan kengroq, ahamiyati jihatidan muhimroq bo'ladi.

Insonning axloqiy hayoti uning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan bog'liqdir. Zero, axloqiy tarbiya insonning shaxs bo'lib yetishuvini ta'minlaydigan uzluksiz jarayonlaridan biri. Go'zal fazilatlar insonga xos narsa, faqat uning mulki emas. Yaxshi fazilat jamiyatning boyligi, umuminsoniy ma'noga ega.

Komillikning o'z o'lchovlari bor. Sabab shundaki, inson turli tomonlarda bir-birodan farq qiladi. Masalan aqliy qobiliyati va jismoniy kuchi, bilimi va hokazolar. Aziziddin Nasafiy komil insonga ta'rif berib yozadi: "Bilgilki, komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to'rt narsa kamolga yetgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif."⁶⁴

Aziziddin Nasafiy ma'naviy yetuklik mezonlarini belgilashda ikki muhim omilga tayanadi: birinchisi — insonning axloqiy fazilatlarini, ikkinchisi esa uning o'zligini anglay bilishidir. Ana shu ikki asosning mavjud yoki mavjud emasligiga qarab, u insonlarni uch guruhga ajratadi.

Birinchi toifaga na yuksak axloqiy sifatlarga ega, na o'zini anglay olgan kishilar kiradi. Ikkinchi guruhni esa axloqiy jihatdan yetuk bo'lsa-da, o'z mohiyatini to'liq anglamagan insonlar tashkil etadi. Uchinchi toifa esa ham axloqan barkamol, ham o'zligini chuqur anglagan shaxslardan iborat bo'ladi.

Shu asosda komil inson obraziga xos bo'lgan axloqiy mezonlar tizimi shakllantirilgan bo'lib, bunday fazilatlariga ega bo'lish har bir insonning ezgu intilishi sifatida talqin etilgan. Shuningdek, qayd etish joizki, o'rta asrlar davrida ilgari surilgan yaxshi xulq-atvor va komillik haqidagi qarashlar muayyan darajada nisbiy xarakter kasb etadi. Biroq masalaga qanday yondashilishidan qat'i nazar, komil inson haqidagi g'oyalar jamiyat uchun muhim ijtimoiy va axloqiy ahamiyatga ega bo'lib

⁶⁴ Комиллов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. — Тошкент: Ёзувчи, 1996. — Б. 147.

qoladi.

3.2. Inson shaxsini takomillashtirishda ma'naviy tarbiyaning muammolari va yechimlar

Tafakkumi to'g'ri yo'naltirish bu tarbiya ishlari bilan bog'liq jarayondir. Tarbiya jarayonining asosiy maqsadi ham insonni kamolotga yetaklashdir. Chunki, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy, siyosiy tarbiya kabi tarbiyaning barcha ko'rinishlari asosida inson muammosi asosiy rol o'ynaydi. Ularning har biri o'z tadqiqot predmetidan kelib chiqib, inson tarbiyasiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Insonning ma'naviy-axloqiy hayoti esa, uning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan bog'liqdir.

Insonning barkamolligi va yetukligi ko'p jihatlarni o'z ichiga oladi. Uning ulug'ligi va donishmandligi, eng avvalo, ma'naviy yuksaklik darajasi bilan belgilanadi. Faqat yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan shaxs jamiyatda yuzaga keladigan muammolarga aql va tafakkur bilan yondashib, ularni hal etishga intiladi. Zero, insonning kamol topishi ko'p jihatdan uni o'rab turgan muhit va insonlar ta'siri bilan bog'liq. Chunki u jamiyat a'zosi sifatida undan ajralgan holda yashay olmaydi.

Insonga xos axloqiy sifatlarni, me'yorlarni, insoniyat taraqqiyoti va ularning talab va ehtiyojlari ta'sirida turli ko'rinishda o'zgaruvchandir. Insondagi hayvoniy nafsni yengib, unda insoniy belgi va sifatlarni yanada ko'paytirish mumkin. Barkamollik — bu barcha insonlar izlagan va intilgan ideallikdir. N. Komilov ta'kidlaganidek, "Komil inson — bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi Mutloq ruhga tutash, fayzu karomatdan serob, siyratu siyrati saranjom, qalbi ezgu tuyg'ularga limmo—lim pokiza zot."⁶⁵

Shaxsning takomillashuvi jarayoni, barcha davrlarda bo'lganidek, globallashuv davrida postindustrial jamiyatda ham o'zining murakkabliklari bilan ajralib turadi. Xalqimizda bejizga "Olim bo'lish oson, lekin odam bo'lish qiyin" degan maqol vujudga kelmagan. Bir so'z bilan aytganda, inson bo'lish ilmi, shaxs shakllanishi va takomillashuvi jarayoni bugungi kunda ham o'zining qiyinchiliklari, murakkabliklari va muammolariga ega.

⁶⁵ Комиллов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. Т., Ёзувчи, 1996. 143 — 6.

Yurtimizda ham so'nggi yillarda ma'naviy tarbiya masalasiga e'tibor kuchayib bormoqda. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekistonda "Ma'naviy tiklanishdan ma'naviy yuksalish" sari g'oyasi asosida amalga oshirilayotgan ma'naviy yangilanish jarayonida ham yoshlarni har tomonlama, xususan, ma'naviy jihatdan ham barkamol qilib tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori⁶⁶, 2020-yil 25-dekabrda O'zbekiston Yoshlari forumida⁶⁷, 2020-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasida⁶⁸ hamda 2021-yilning 19-yanvar kuni Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilangan eng dolzarb vazifalardan biri ma'naviy tarbiya jarayonini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ma'naviy tarbiyaning ijtimoiy ehtiyoj ekanligi, jamiyatdagi har qanday transformatsion islohotlar ta'lim va tarbiya asosiga qurilishini ta'kidlagan edi. Yurtboshimiz "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi" degan g'oyani ilgari surib, "Har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lamini va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz. ...yosh avlodga bog'cha, maktab va oliygohda sifatli ta'lim-tarbiya berishni yo'lga qo'yamiz, ular jismoniy va ma'naviy sog'lom, vatanparvar insonlar bo'lib ulg'ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni

⁶⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-son qarori - <https://lex.uz/docs/-4320700>

⁶⁷ <https://yuz.uz/uz/news/stuplenie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyoyeva-na-forume-molodeji-uzbekistana>

⁶⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi - <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

safarbar etamiz⁶⁹" deb ta'kidlagan edi.

Shuningdek, ma'naviyatning jamiyatimiz uchun o'rni naqadar muhimligini Prezidentimizning 2021-yilning 19-yanvardagi videoselektorda bildirgan quyidagi fikrlaridan ham bilan olishimiz mumkin: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat⁷⁰".

Umuman olganda, Respublikamizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini, jumladan uning tarkibiy qismi bo'lgan ma'naviy tarbiya jarayonlarini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilab qo'yilgan:

- ezigulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;
- oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash;
- targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;
- el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;
- madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari,

⁶⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi - <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

⁷⁰ <https://yuz.uz/uz/news/jamiyat-hayotining-tanasi-iqtisodiyot-bolsa-uning-joni-va-ruhi-ma'naviyatdir>

noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish;

- geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish⁷¹.

Albatta ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini takomillashtirish bir zumda sodir bo'ladigan jarayon, tezda bajariladigan vazifa emas. Ma'naviy yangilanish ba'zida bir necha avlodlar almashinuvini taqozo etadi. Bu jarayon mamlakatda amalga oshiriladigan ma'naviy islohotlarning samaradorligiga, shu jumladan, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning to'g'ri tashkil etilganligi va to'g'ri amalga oshirilganligi bilan ham uzviy bog'liq hisoblanadi. Shu tufayli ham shaxs takomilida ma'naviy tarbiya omilining ta'siri beqiyos hisoblanadi.

Mazkur vazifalarni bajarish jamiyatimizda mavjud barcha davlat va nodavlat tashkilotlarning faolligini, o'z vazifalarini sidqidildan bajarishini talab etadi. O'z navbatida mazkur yo'nalishda, ya'ni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini hamda ma'naviy tarbiya jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish vazifasi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi zimmasiga yuklangan. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi quyidagi yo'nalishlarda ma'naviyat sohasidagi siyosatini amalga oshirishi belgilab qo'yilgan:

- a) davlat organlari va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik yo'nalishida;
- b) ilmiy-tadqiqot yo'nalishida;
- c) targ'ibot-tashviqot yo'nalishida⁷².

Ma'naviy tarbiya jarayoni amaliy ahamiyatga ega bo'lgani bilan bir qatorda, uning nazariy asoslariga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Zero, tarbiya jarayonlarining samarali bo'lishi, oldiga qo'yilgan vazifalarni to'liq bajara olishi uchun nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash zaruriyati ham yuzaga chiqadi. Shundan kelib chiqib, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi quyidagi

⁷¹ <https://yuz.uz/uz/news/manaviy-marifiy-ishlar-tizimini-tubdan-takomillashtirish-chora-tadbirlari-to'g'risida>
⁷² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarori – <https://lex.uz/docs/-5344692>

yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishi belgilan qo'yilgan:

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishning samarali va ta'sirchan targ'ibot texnologiyalari hamda usullarini ishlab chiqish;
- ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga doir xorijiy tajribani o'rganish, shuningdek, bugungi mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash;
- maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimi, mahalla va boshqa tuzilmalar kesimida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning monitoringini olib borish, aniqlangan muammolarni hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan tarbiya texnologiyalari, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;
- ma'naviy tarbiya va ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni tashkil etish, ularning natijalari amaliyotga tatbiq qilinishini muvofiqlashtirish⁷³.

Ushbu tadqiqotlar doirasida shaxs kamolotini ta'minlashda ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonini zamonaviy yo'nalishlar asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bu jarayonda ma'naviy-axloqiy bilimlar, qadriyatlar, fazilatlar hamda ma'naviy faoliyat kabi tarkibiy unsurlarga alohida e'tibor qaratish zarur hisoblanadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiluvchi ma'naviy-axloqiy bilimlarning shakllanishi natijasida insoning axloqiy dunyoqarashi kengayadi, unda axloqiy munosabat shakllanadi hamda axloqiy ongida yaxshilik, baxt, vijdon, adolat, burch, or-nomus, muhabbat, ezigulik, shon-sharaf, e'tiqod, axloqiy ideal singari ko'plab axloqiy kategoriyalar shakllanadi. Ma'naviy-axloqiy bilimlarni o'zlashtirgan inson shaxsida tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, kamtarlik, fidoyilik kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlar qaror topa boshlaydi. Ushbu fazilatlariga ega yoshlar axloqiy me'yorlar talablarini ongli bajaradi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar sanalmish ma'naviy meros, urf-odat va an'analarga nisbatan hurmatda bo'ladi. Ammo ma'naviy-axloqiy

⁷³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarori – <https://lex.uz/docs/-5344692>

me'yorlar haqida bilimga ega bo'lish, uni tushunish, ezgu fazilatlarini tarkib toptirish hali insonning ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanganini anglatmaydi. Insoniylik fazilatlarini qachonki hayotiy tajribalarda aks etib, shaxsning munosabatlarga kirishish faoliyatida yorqin namoyon bo'lsa, bu uning tarbiyalanganlik darajasini belgilaydi.

Jamiyat taraqqiyoti uchun, avvalo, ma'naviy-axloqiy kompetentli, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash, shuningdek, asosiy e'tiborni yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini oshirish masalasiga qaratish zarur. Negaki ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalangan shaxslarsiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur etib bo'lmaydi. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda, eng avvalo, millatimiz tarixi va ma'naviyati ildizlariga e'tibor qaratish taqozo etiladi⁷⁴.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoni bilan bog'liq yana bir o'ziga xos jihat – uni shakllantiradigan omillarni mustahkamlash hisoblanadi. Bugungi kunda yangi O'zbekistonda ma'naviy tarbiya orqali inson shaxsini takomillashtirishda ma'naviy tarbiyaning asoslarini mustahkamlash masalasiga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Ma'naviy tarbiyani shakllanishida muhim rol o'ynaydigan ko'plab vositalar mavjud. Mazkur vositalar voqelikni ilmiy hamda g'oyaviy tamoyillar bilan chambarchas uyg'unlikda anglash jarayonida, ijodkorona yondashuv asosida shakllanadi.

Ma'naviy tarbiyani shakllantirishning barcha zamonlar uchun xos bo'lgan ko'rinishi, bu – ota-onaning farzandga ma'naviy-axloqiy jihatdan namuna bo'lishidir. Zero, ma'naviy yuksak va jismoniy barkamol insonlarni tarbiyalab kamolga yetkazish, insonning kamolga erishishi ham oiladan boshlanadi. Bu borada o'zbek ma'rifatparvari Abdulla Qodiriyning oila tarbiyasi haqidagi fikrlari diqqatga sazovor: "Tarbiya ta'sir qiladigan kishilar uch toifaga bo'linadilar, Birinchisi – hanuz oq bilan qorani tanimagan bola. Uning tabiati hali yomonlik g'ubori bilan bulg'anmagan, yuragi esa botil ishlar zulmati bilan qoralanmagan bo'ladi. Bunday bolaga nasihat tez ta'sir qiladi. Bunday bolani to'g'ri yo'lga osonlik bilan o'rgatish mumkin. Ikkinchisi – oq bilan qorani ajratadigan bo'lib qolgan bola. Ulardan ba'zilari o'z nafsining

⁷⁴ Ismailova Z. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish komponentlari. – Toshkent: Ijtimoiy boshqaruv, 2021. - <https://ijtimoiy.uz/1855/>

g'alabasi bilan yaxshilik tomonga burila olmay yurgan bo'ladi. U qilayotgan ishini yomonligini biladi. Nuqsonlarini esa e'tirof etadi. Bunday odamni tarbiyalash birinchisiga nisbatan qiyinroq, ammo unga doimiy tarbiya berilib, har xil nasixatlar va tanbehlar berib borilsa, albatta, yaxshi yo'lga kirib ketadi. Uchunchisi – oilada botin xayol va fosid fikrlar bilan o'sib ulg'aygan kishi. U umr bo'yi nohaq ishlarini haq deb bilib kelgan va shunga astoydil e'tiqod qo'ygan bo'ladi. Yomonlik qilsa ham uni o'zicha yaxshilik deb o'ylaydi. Bunday kishini tarbiya qilish juda og'ir. Uning tarbiyasiga kirishish – tirnoq bilan quduq qazish yoki qizib cho'qqa aylanmagan temirni bolg'alash bilan barobar. Donolar yaxshi yoki yomon xulqli bo'lishni oilaga bog'laydilar. Ularning aytishicha, buzuq xotindan tug'ilgan va razil ota qo'lida tarbiyalangan farzanddan yaxshilik kutish qiyin. Chiroyli xulq oftobga o'xshaydi, oftob muzni eritgani yoki suv tuzni eritib yuborgani kabi chiroyli xulq ham barcha yomonliklarni eritib yuboradi."⁷⁵

Oila – insonning ishonchli tayanchi, uning ma'naviyati va axloqning o'zagidir. Oilaviy davomiylik ijtimoiy hayotning asosiy qoidalari va tushunchalarini, an'analar va urf-odatlarini, marosimlarni, yosh avlodni tarbiyalashga doir xalqning ijtimoiy tajribasini saqlash, avlodlardan avlodga olib o'tish imkonini beradi. Ushbu jarayon otalarni, bolalar, qarindoshlarning hamkorlik qilishi, kattalarni hurmat qilish, kichiklarga g'amxo'rlik ko'rsatish tufayli yuz beradi. Oiladagi sog'lom muhit yoshlarda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar shakllanishining garovidir. Qolaversa, oiladagi tinchlik-xotirjamlik, o'zaro hurmat, mehr-muhabbat va bir-birini tushunish milliy mustaqillik mafkurasi maqsadlari va tamoyillarini ishonchli ravishda amalga oshirilishiga ko'maklashadi.

Jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy jihatdan rivojlanishi har tomonlama kamolga yetgan shaxsning shakllanishiga, uning siyosiy, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetukligiga bog'liq. Qachonki, inson vatani va unda mavjud bo'lgan oilalar va undagi tarbiya tarixini chuqur bilib, qanday buyuk ajdodlar avlodi ekanligini bilsa va his etsa, u o'zligini anglaydi va yuragida shu yurt, shu millat farzandi ekanidan chuqur milliy g'ururni, faxrni tuyib yashay boshlaydi. Bu esa

⁷⁵ Олоб бўстони ва ахлоқ гулстони. Т., Фан. 1994. 9-б.

ma'naviy tarbiya jarayonlarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda davlatimiz tomonidan qabul qilingan bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda xalqimizning ijtimoiy-madaniy yuksalishini ta'minlovchi fikrlar, *tavsiyalar berildiki, bular respublikamizning asosi - oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy kamolotida muhim rol o'ynamoqda. Chunki oilalarning har tomonlama yuksalishi, ta'bir joiz bo'lsa, jamiyatning yuksalishi demakdir. Xuddi shu ma'noda kelajagimiz bo'lmish yosh avlod tarbiyasi va uning taraqqiyoti davlat ahamiyatiga molik masala hamdir. Ikkinchi tomondan olib qaralganda jamiyatning oiladagi tarbiyaga bo'lgan talab va ehtiyojlari kundan kunga kuchaymoqda. Chunki, farzand tarbiyasi borasida ota-onalarning mas'uliyatini oshirish, tarbiya berish qobiliyatini rivojlantirish, oila- maktab-mahalla hamkorligini yo'lga qo'yish bugungi kunimiz uchun g'oyat muhim vazifadir.*

Zero, faylasuf olim Ismoil Saifnazarov ta'kidlaganidek, "Oila farzand bilan mukammaldir. O'zbekiston yoshlar vatani! Yigit va qizlarimizga vatanparvarlik, mehnatsevarlik, adolatparvarlik, halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu hayo kabi fazilatlar bevosita oilada shakllanadi"⁷⁶.

Bugungi taraqqiyot sharoitida har bir insondan atrof-muhitni teran anglay olish, mustaqil xulosa chiqarish, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lish, ruhiy jihatdan barqarorlikni saqlash hamda jamiyat hayotining turli sohalarida faol va qat'iyatli ishtirok etish talab qilinmoqda. Shu bilan birga, bunday ijtimoiy, ruhiy va xulq-atvorga oid sifatlarning shakllanishida oila muhim poydevor vazifasini bajarib, shaxsning kamolotida hal qiluvchi o'rin egallaydi. Barkamol inson tarbiyasida oila jamiyat bilan yaxlit birlikni tashkil etadi, bu esa hozirgi kunimiz uchun xos xususiyatlardan biridir. Ayniqsa, ota-onalar va jamiyat a'zolarining mehnat faoliyatlari xarakteri, erkak va ayolning teng huquqligi, o'zaro hurmat, farzandlarni e'zozlash, hurmatlash, ijtimoiy va fuqarolik e'tiqodi, oilaviy madaniy hayotning mavjudligi va o'sayotganligi oilalarga xos fazilat sifatida qadrlanmoqda.

Millatlarning tarixiy, milliy va regional xususiyatlarini hisobga olgan holda

⁷⁶ Saifnazarov I., Saifnazarova F. Yoshlar va oila vatan tayanchi. – Toshkent: Ta'lim nashriyoti, 2018. – 10 b.

oilalar taraqqiyotini umumiy va xususiy taraqqiyotlar asosida oilaviy tarbiyani maqsadga muvofiq yaxshilash lozim. Bu davlatimizning oilada yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish jarayoniga qaratilgan ilmiy va amaliy tavsiyalaridan biridir. Har bir millat o'ziga xosligi, milliy madaniyati, milliy adabiyoti, milliy tili va *shu millatning ruhiy tarzini majmuasida, ya'ni milliy ruhiyatida o'z ifodasini topadi. Binobarin, xalq va millat ma'naviyati va ruhiyatini yosh avlodga singdirish ishini oiladan boshlash kerak. Farzand tarbiyasining asosiy jihatlar tahlil qilinganda, ma'naviy tarbiyani uzluksiz tarzda olib borishda eng muhim rol o'ynaydigan institut oila hisoblanadi. Inson axloqiy, ma'naviy va ruhiy qiyofasining poydevori oilada qo'yiladi.*

Yangi O'zbekistonda jamiyat ma'naviy hayotini *sog'lomlashtirish va rivojlantirish*, inson omiliga katta e'tibor berish mamlakatimiz oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri sifatida kun tartibiga qo'yilishi ham moziyning ko'p asrlik saboqlariga, jamiyat oldida ko'ndalang turgan yangi vazifalarni hal etishga oqilona yondashishning ko'rinishidir.

Ma'naviy tarbiya bilan bog'liq yana bir o'ziga xos jihat – jamiyatda, xususan, oilalarda kitobxonlik madaniyatining shakllanishi bilan bog'liq. Respublikamizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va keng targ'ib etishdan asosiy maqsad – yoshlarimizni nafaqat jismonan balki ma'nau yetuk va dunyoqarashi keng insonlar qilib tarbiyalashdir. Kitob mutolaa qilish hamda oilada ma'naviy muhitni shakllantirishda oilaviy kitobxonlik muhim ahamiyat kasb etadi.

2015-yildagi NOP World xalqaro tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, hindlar dunyodagi eng ko'p vaqtini kitob o'qishga sarflaydigan millat sifatida aniqlandi va keyingi kuchlilar safida esa, taylar, xitoyliklar, filippinliklar, ruslar, shvedlar, fransuzlar e'tirof etildi. 2016-yilgi kuchli uchlik reytingni esa Xitoy, Rossiya va Ispaniya kitobsevarlari tashkil etdi (GfK xalqaro tadqiqot instituti o'tkazgan so'rovnoma natijalariga ko'ra)⁷⁷. Kitobxonlik bugungi kunda jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Yuqorida sanab o'tilgan millatlarning moddiy va ma'naviy yuksalishi hamda taraqqiyotida kitobxonlikning aholi orasida

⁷⁷ <https://animedia-company.cz/experts-have-identified-the-most-reading-country-in-the-world/>

keng tarqalishi ham muhim ta'sir ko'rsatdi. Shu o'rinda bir savol tug'iladi. O'zbekistonda kitob mutotalasi bilan bog'liq vaziyat qanday? Kitobxonlikni kengaytirish borasida qanday ishlar qilinmoqda?

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda jamiyatda kitobxonlik an'analarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, ayniqsa yoshlar va yangi tashkil topayotgan oilalarda kitobga bo'lgan qiziqishni shakllantirish ustuvor vazifaga aylantirildi. Bu jarayon orqali nafaqat ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning samarasi oshirilmogda, balki jamiyatda intellektual salohiyatga ega insonlar qatlamini kengaytirish ham maqsad qilinmogda. Shu yo'nalishda turli amaliy tashabbuslar va loyihalar hayotga tatbiq etildi. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2016-yil 19-oktabr kuni Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII syezdida so'zlangan saylovoldi nutqida kitobxonlikni ommalashtirish, adabiyotga qiziqishni oshirish borasida ilgari surilgan ushbu fikrlari ezgu ishlar uchun muhim boshlang'ich nuqta vazifasini bajardi: "Ayni paytda, axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi"⁷⁸. 2017-yil 13-sentabrda "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ-3271-sonli⁷⁹, 2018-yil 12-mayda "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3721-sonli⁸⁰ Prezident qarorlari, 2020-yil 14-dekabrda Vazirlar Mahkamasining

⁷⁸ Mirziyoyev Sh. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati-O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII s'ezdidagi saylovoldi ma'ruzasi// "XXI asr", 2016, 20 oktabr

⁷⁹ 2. "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ-3271-sonli Prezident qarori. 2017 yil 13 sentabr (<https://lex.uz/docs/3338600>)

⁸⁰ "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3721-sonli Prezident qarori. 2018 yil 12 may

"2020 — 2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 781-son qarorlarining qabul qilinishi⁸¹ ushbu fikrlarning izchil davomi hisoblanadi. 2019-yil 19-mart kuni yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida davlat rahbari tomonidan ijtimoiy hamda ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlarda ishlarni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida 5 ta muhim tashabbus ilgari surildi. Ushbu tashabbuslarning to'rtinchisi aynan yoshlar orasida kitobxonlikni rivojlantirish va uni keng targ'ib etishga qaratilgan tizimli ishlarni yo'lga qo'yishni nazarda tutadi. Shu asosda respublika miqyosida "Yosh kitobxon", "Yosh kitobxon oila" hamda "Duel" kabi turli tanlov va musobaqalar tashkil etilib, amaliyotga joriy qilindi. Bugungi kunda jamiyatimizda kitobxonlikni kengaytirish maqsadida qilinayotgan ishlardan asosiy maqsad — yosh avlod qalbida kitob hamda kitobxonlikga qiziqish uyg'otish, kutubxonani sevimli maskanga aylantirish hisoblanadi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, bugungi kunda Yangi O'zbekistondagi tarbiya jarayonlarining asosiy tendensiylari ham tadrijiy jihatdan rivojlanib kelayotgan jarayonning davomi, ham globallashuv tufayli takomillashirilishi, tezkor yechimlar qilinishi zarur bo'lgan hodisa hisoblanadi. Shu tufayli ham ma'naviy-axloqiy tarbiyada ham tarixiy ildizlarga murojaat qilish, ham globallashuvning o'ziga xos jihatlarga e'tibor qilish talab etiladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ma'naviy tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar keng ko'lamli bo'lib, tarbiya jarayonida kichik narsalar bo'lmasligi tamoyiliga asoslanmogda. Ma'naviy tarbiya jarayonlarining to'g'ri, tizimli va tartibli amalga oshirilishi, davlat va nodavlat muassasalarning hamkorligi ta'minlanishi, davlatning mazkur sohada asosiy yo'nalishlarni belgilab olishi inson shaxsi takomillashuvida ijobiy ta'sir ko'rsatishi, shubhasiz.

Shu bilan birgalikda biz bugun ma'naviy tarbiya masalasini faqat ota-onaning, pedagoglarning yoki biror bir vakolatli shaxsning ishi deb emas, balki barchamiz

(<https://lex.uz/docs/4887792>)

⁸¹ Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrda "2020 — 2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 781-son qarori. QHMMB: 09/20/781/1619-son. 14.12.2020 y.

uchun burch va mas'uliyat deb bilishimiz bizni bugungi kundagi islohotlarimizning asosiy mazmuniga aylanishi kerak.

XULOSA

Inson tanasining o'sishi va rivojlanishi uchun suv, havo, ozuqa qanchalik zarur bo'lsa uning dunyoqarshi, ongi va qarashlarini rivojlanishi uchun ma'naviyat kerak bo'ladi. Ma'naviyatsiz inson qanotsiz qush kabidir. Qush qanoti bilan ko'klarga parvoz etaolgan kabi inson ham o'z ma'naviyati, bilimi, yuksak axloqi bilan yuksaklikka intiladi.

Xalq hayoti bamisoli ulug' va sharaflı yo'ldan ilgarilab borayotgan ulkan karvonga qiyoslanadi. "Karvon bexatar bo'lmas, degan gap bejiz ayılmagan. Ammo xalq karvonini hech qanday kuch ortga qaytarolmaydi. Nega deganda, xalqning qalbida ne-ne avlodlardan meros engilmas kuch, ma'naviyat bor".

Ma'naviy tarbiya masalasi barcha davrlarga xos, o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan masala bo'lib, jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Chunki, ma'naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi, hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi.

Ma'naviy barkamollik crishish esa – bu bir yillik yoki besh-o'n yillik ish emas, balki xalq, millat o'z milliy ma'naviyatini yillar, asrlar davomida yuksaltirib, boyitib borishiga e'tibor qaratadi. Chunki ma'naviyat qotib qolgan aqidalar yig'indisi emas, aksincha, doimiy harakatdagi uzluksiz jarayon hisoblanadi

Ma'naviy barkamol shaxs tushunchasi keng qamrovli, serqirra tushunchadir. Ma'naviy barkamol inson – komil inson tushunchasi bilan hamohangdir, yana sog'lom avlod tushunchasi bilan ham bog'lanib ketadi.

Bugungi kunda ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashdek ezgu vazifani amalga oshirayotganimiz bilan bir paytda ma'naviyatimizga tahdid solib turguvchilar ham yo'q emas. Bora-bora bu hol global muammoga aylanib ulgurmoqda. Globallashuv to'liqlari bilan birga kirib kelgan "Ommaviy madaniyat", internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan mafkuraviy xurujlar bizni har qachongidan ham sergak va ogoh bo'lishga chorlamoqda.

Internetdan olinayotgan xabarlar yoshlar ma'naviy tarbiyasi. ongiga faqat salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, degan fikrlarga nisbatan "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ta'kidlagan quyidagi xulosaga tayanish lozim: "...sodda qilib aytganda, Internet bu katta bir do'kon. Do'konga borganda, odam xohlagan molini sotib oladi. Masalan, biz bozorga o'zimiz istagan, manfaatimizga xizmat qiluvchi buyumni sotib olgani boramiz. Internetni ham kishilar ehtiyoji va manfaati uchun xizmat qiluvchi axborot bozori deb anglash kerak". Demak yoshlarga Internetdan, axborotdan foydalanish, axborot iste'moli madaniyatini o'rgatishda dunyoning qaysi burchagidan qanday ma'lumot kelmasin, qanday ma'naviy tajovuz tahdid solmasin, har qanday holatda ham ma'naviy-ruhiy jihatdan ogoh va hushyor, turli axboriy xurujlardan o'zlarini yo'qotib qo'ymaydigan barkamol shaxslarni shakllantirish bu sohadagi ma'naviy tarbiyaning asosiy mezon bo'lmog'i lozim.

Ma'naviy-ma'rifiy barkamollikning muhim qirra va mezonlari sirasiga mustaqillik tafakkuri va milliy iftixor ham kiradi. Mustaqillik tafakkurini har bir kishida shakllantirish nihoyatda zarur. Toki, mustaqillik tafakkuri va milliy iftixor, g'urur bo'lmas ekan, fidokorlik, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi xislatlar jo'sh urmaydi. Ma'naviy barkamol, komil insonni tarbiyalash vazifasi qanchalik murakkab bo'lmasin uni amalga oshirganimizdagina pirovard maqsadga erishish mumkin.

Hozirgi davrda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar umumiy aholining taxmiman 40 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa 64 foizini tashkil etadi. SHu sababli yoshlarning tarbiyasiga, kamolotga etishiga huquqlarini himoya qilishga e'tiborni qaratish davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda Prezidentimizning har bir ma'ruzasi va nutqlarida, farmon va qarorlarida yoshlarimizning ta'lim tarbiyasi masalasi aks etib kelmoqda. "Agar mendan sizni nima qiynaydi?" deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman, "Eng katta meros - bu yaxshi tarbiya. Eng katta qashshoqlik esa - bu bilimsizlik" kabi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan aytilgan bu fikrlar ham yurtboshimizning yoshlar tarbiyasi masalasini o'zining eng ustuvor ishi deb hisoblaganidan darak beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki shaxs ma'naviyatini boyitib borishining omillari va vositalariga ko'plab misollar keltirish mumkin: boy tariximiz, milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimiz, ajdodlarimiz to'plagan yuksak tajriba va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Faqat ularning haqiqiy kuchidan samarali foydalanib, yoshlar tarbiyasidek ezgu ishda beparvolik, o'zibo'larchilikka berilmasligimiz, bu ishni barchamiz o'zimizning burch va mas'uliyatimiz deb bilishimiz bugungi kunning eng asosiy masalasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik manbalar.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023. – 40 b
2. “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi PQ-3271-sonli Prezident qarori. 2017 yil 13 sentabr
3. “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-3721-sonli Prezident qarori. 2018 yil 12 may
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustda qabul qilingan “Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3907-sonli Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4307-son qarori
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5040-son qarori
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 1059-sonli qarori
8. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrda “2020 — 2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi 781-son qarori. QHMMB: 09/20/781/1619-son. 14.12.2020 y.
9. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom

- ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMTU, 2017. – 461 b
10. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. Toshkent, “O'zbekiston”, 2021. 457-bet
 11. Mirziyoyev Sh.M Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2022. – B. 32.
 12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 07.01.2021 yildagi 681-IV-son
 13. Mirziyoyev Sh.M Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati-O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII s'ezdidagi saylovoldi ma'ruzasi// “XXI asr”, 2016, 20 oktabr
 14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. 1 iyul, 2017 y.
 15. Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar-ezgu maqsadimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir // “Xalq so'zi” gazetasi, 2017 yil 1 iyul.
 16. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008. – 96-bet
 17. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir: “FIDOKOR” gazetasi muxbiri savollariga javoblar.-T.: “O'zbekiston”, 2000. 32-bet.

II. Monografiya, darslik, o'quv qo'llanmalar, ilmiy maqolalar.

18. Abdulla Avloniy. “Turkiy guliston yohud axloq”. – Toshkent. O'qituvchi, 1992
19. Abdurauf Fitrat. “Rahbari najot”. Boku. 1915-yil. 198 bet
20. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. Ikkinchi nashr. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – B. 52.
21. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Xalq merosi, 1993. – B. 159
22. Akmal Miravaz o'g'li. «Tarbiyaning oltin kaliti yoxud yo'ldagi

belgilar». "Movaraunnahr" nashriyoti. T. 2020 y.

23. Amir Temur o'g'itlari. Toshkent, "Navro'z". 1992-yil.
24. Axmedova M, Xan V. «Falsafa». «Mehnat» nashriyoti. T. 2005 y. 244 bet
25. Erkaev A. Ma'naviyatshunoslik. Ma'naviyat metodologiyasi va praktsiologiyasi. 2-kitob. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018. -y. 456 b.
26. Falsafa qomusiy lug'at. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti" Toshkent. 2004.450-b
27. Falsafa. Toshkent. "O'zbekiston", 2005, 275 bet
28. Ibn Faxruddin, Rizouddin. Oila. - T.: Mehnat, 1991
29. Inoyatov U.I, Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogika (nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun darslik). Toshkent. 2016-yil.
30. Ismailova Z. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish komponentlari. – Toshkent: Ijtimoiy boshqaruv, 2021.
31. Kant I. Soch. T.N.CH I. M., 1965. 269 b.
32. Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. – Toshkent: Yozuvchi, 1996.- B. 147
33. Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati. Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2021-yil 816 bet
34. Munavvarov. A.Q «Pedagogika». «O'qituvchi» nashriyoti. T. 1996 y. 276 bet.
35. Murodov. Etnomadaniyat. T.: Adolat. 2003.
36. Mutalipova M.I "Xalq pedagogikasi". "Fan va texnologiya" nashriyoti. Toshkent. 2015-yil. 160 bet
37. Odob bo'stoni va axloq gulistoni. T., Fan. 1994.
38. Otamuratov S, Husanov S va boshqalar. Ma'naviyat asoslari. O'quv qo'llanma. T.A Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. "O'AJBNT" markazi, 2002. - 213 bet.
39. "Oyna" jurnali, 1914 yil, 41-son.
40. Pedagogika / Slasten V.A, Isaev I.F, Mishenko A.I va boshqalar–

Moskva: Vldos, 1997. – S. 297.

41. Saifnazarov I., Saifnazarova F. Yoshlar va oila vatan tayanchi. – Toshkent: Ta'lim nashriyoti, 2018. – 10 b
42. To'lanov J. Qadriyatlar falsafasi. Toshkent, "O'zbekiston", 1998,
43. To'xtaxo'jaeva M.X, Ashirboyev S va boshqalar. "Pedagogika tarixi va nazariyasi". I qism. Toshkent, 2005-yil 358 bet
44. Umarov E, Abdullayev M. "Ma'naviyat asoslari" Toshkent, "Cho'lpon", 2006-yil 128 bet
45. Xudaynazarov S, Tursunova G. "Ma'naviyatshunoslik" fani bo'yicha o'quv- uslubiy majmua. Toshkent. 2012-y. 427 bet.
46. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – Toshkent: Universitet, 1998. – B. 183
47. O'zbek tilining izohli lug'ati. A – D / 5 jildli. Birinchi jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 468 bet.
48. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 10-jild, Toshkent, "O'zME", 2005.

III. Boshqa manbalar.


49. [http:// www. ma'naviyat.uz](http://www.ma'naviyat.uz)
50. [http:// www. meningkonstitutsiyam.uz](http://www.meningkonstitutsiyam.uz)
51. [http:// www. ijtimoiy.uz](http://www.ijtimoiy.uz)
52. [http:// www. lex.uz](http://www.lex.uz)
53. [http:// www. prezident.uz](http://www.prezident.uz)
54. [http:// www. xs.uz](http://www.xs.uz)
55. [http:// www. yuz.uz](http://www.yuz.uz)
56. [http:// www. ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)

INSON SHAXSINI TAKOMILLASHTIRISHDA MA'NAVIY TARBIYANING AHAMIYATI

Mazkur monografiya globallashtirishning murakkab va shiddatli jarayonlari sharoitida inson shaxsini takomillashtirishda ma'naviy tarbiyaning tutgan o'rnini va ahamiyatini tadqiq etishga bag'ishlangan. Tadqiqotda inson shaxsi tushunchasining falsafiy-huquqiy mohiyati, uning shakllanishida ma'naviy tarbiya omilining nazariy asoslari hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi tizimli ravishda yoritilgan.

Murotov Elyor — Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi. Uning ilmiy izlanishlari inson shaxsining falsafiy-huquqiy mohiyati, globallashtirish davrida ma'naviy tarbiya transformatsiyasi va Yangi O'zbekistonda yoshlar tarbiyasi tendensiyalarini o'rganishga qaratilgan.

FOR AL



Globe
EDIT